

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti

«Pedagogika va psixologiya» kafedrası

«Pedagogika va psixologiya» mutaxassisligining 4-z guruh talabasi

Avazmetova Yulduzning

«Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik jarayonni tashkil etish» nomli mavzuda

BAKALAVR BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

p.f.n.dots. Nauruzbaeva A.

Kafedra mudiri :

ps.f.n. dots. Saparov Sh.

Nukus-2014

KIRISH.

I-BOB. BOLALAR BOG`CHASI YOSH GURUXLARIDA TA'LIMNING O`ZIGA XOSLIGI.

- 1.1. Ilk yoshdagi bolalarga ta'lim berish.
- 1.2. Bolalarni kichik va o`rta katta yosh guruxlarida tarbiyalash.

II-BOB . BOLALAR BOG`CHASIDAGI O`QITISHNING SHAKLLARI.

- 2.1. Mashg`ulotlar bolalar bog`chasida o`qitishning asosiy va etakchi shakli sifatida.
- 2.2. O`qitishning kundalik hayotdagi tashkiliy shakllari.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlangich turi xisoblanadi. Hamda O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'grisida» «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari asosida tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim soglom, har tomonlama yotuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga etguncha oilada, xamda davlat va davlatga karashli bulmagan maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim, bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qullanadigan Davlat talablariga muvafik soglom va etuk, maktabda o`qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maksadini kuzlaydi.

Maktabgacha ta'limning vazifalari: bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbajariy kadriyatlar asosida va umumbajariy kadriyatlar asosida akliy va ma'naviy-axlokiy jixatdan tarbiyalash;Bolalarda milliy gurur, vatanparvarlik xislarini shakllantirish;

Maktabgacha yoshdagi bolalarni bilim olish extiyojini, o`qishga intilish manbalarini shakllantirish, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash.

Bolalarning tafakkurini rivojlantirish, uzining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish.Bolalarning jismoniy va ruxiy sogligini ta'minlash.Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning xamma turlari bilan mustaxkam aloxida olib boriladi.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida – oila jamiyatning asosiy bug'inidir, xamda jamiyat va davlat muxofazasida bulish xuquqiga ega» deyilgan. Shuningdek, voyaga etmaganlar – davlat ximoyasidadir – deb uktiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi oila va jamiyatning bolalarga g'amxurlik kilish, milliy va mintaqa xususiyatlarini xisobga olgan xolda har tomonlama

barkamol kilib tarbiyalash va rivojlantirishga bulgan extiyojini kondirish maksadida tashkil etiladi.

Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyada onalik va bolalikni Davlat tomonidan muxofaza kilinadi deb uktiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona, ya'ni maktabda beriladigan navbatdagi tarbiya vazifalariga muvofik bulgan sistemani amalga oshirish maxsadida, maxalliy sharoit va imkoniyatlarni nazarda tutib, bolalar muassasalarini ikki tipini: yasli va bolalar bogchasini,yagona maktabgacha tarbiya bolalar muassasasi kilib birlashtirilsin. Bu muassasalarga xalq maorifi komissarligi raxbarlik xilsin,bundan buyon barcha turdagi bolalar muassasalari, ularning bolalarni turar joylariga yakinlashtirish va shu bilan ota-onalarning vaktini kamaytirish nazarda tutilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning birlashgan tipovoy loyixasi buyicha kurilsin.

Ittifokdosh Respublikalarga – maktabgacha tarbiya muassasalari xakida Nizom tuzib chikik va uni tayyorlash yuklatilsin.

Pedagogika fanlar akademiyasi va meditsina akademiyasi bilan birgalikda Maktabgacha yoshdagi yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona programmasini tuzib chikish topshirilsin.Yarokli binolarni moslashtirish va planli kurishni arzonlashtirish;Tarbiyachilar va meditsina xodimlari kadrlarini tayyorlash kuzda tutildi.Bolalarni ovkatlantirish va utigon – mebellar bilan ta'minlashi;

Bogchaga katnamaydigan bolalar uchun bolalar parklarida, skverlarda va uylarning xovlilarida maydonchalar tashkil kilish va ularni jixozlash choralarini kurish yuklashilsin. Axoli urtasida lektsiyalar o`qish, suxbatlar utkazish, ammoviy – ilmiy adabiyotlarni kuprok nusxada nashr etish;

Tadqiqot maqsadi: Maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik jarayonni tashkil etishning didaktik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob`ekti. Maktabgacha yoshdagi bolalar.

Tadqiqot predmeti: Maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik jarayonni tashkil etish mazmuni, shakli, usul va vositalari.

Tadqiqot vazifalari:

1 . Ilk. kichik , o`rta va katta maktabgacha tarbiya yoshidagi yoshdagi bolalarga ta'lim berish.

2. Mashg`ulotlar bolalar bog`chasida o`qitishning asosiy va etakchi shakli sifatida ekanligini ilmiy jihatdan asoslash;

3. Sayrning o`qitish shakli sifatida o`rni va ahamiyatini asoslash;

4. Maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik jarayonni tashkil etishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning metodlari. tanlangan muammoga oid ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish, ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish va umumlashtirish

Tadqiqotning metodologik asoslari. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тизимисидagi Зонуни, «Кадрлар таййорлаш миллий дастури», «Ўзбекистон Respublikasi maktabgacha tarbiya Kontseptsiyasi »,Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи ва маърузалари.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijasida maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik jarayonni tashkil etishga oid nazariy yondashuvlar, ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitildi. Shuningdek, pedagogika fani maktabgacha ta`lim muassasasida pedagogik jarayonni tashkil etishning shakl, metod va vositalariga ega bo`ldi.

Tadqiqotining tuzilishi va hajmi

Kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

I-BOB. BOLALAR BOG`CHASI YOSH GURUHLARIDA TA'LIMNING O`ZIGA XOSLIGI

1.1. Ilk yoshdagi bolalarga ta'lim berish.

Bolaning rivojlanishi bola hayotining dastlabki kunlaridanoq boshlanadi: ilk yoshlik chog`ida bolaning bo`yi va og`irligi, inson hayotining boshqa davrlariga qaraganda, tezroq o`sib boradi, sezgi, idrok, xotira, diqqat, tafakkur va boshqa psixik funktsiyalarning rivojlanishi ham tez boradi. Bu davrlarda bolaning nutqi ham tez rivojlanadi. Ikki yoshlarda gapira boshlagan bola, uch yoshga borib qo`shma gaplar tuza oladi, uning so`z boyligi ham ko`payadi (1000-1200 so`z).

Bolaning ilk yoshlik chog`ida to`g`ri, mavridi bilan o`lishi uning hayot sharoitiga, tevarak atrofdagi kattalarning aktiv, biror maqsadga qaratilgan ta'sir ko`rsatishiga bog`liq.

Bola uchun zarur sharoit yaratish, kattalarning unga bevosita ta'sir ko`rsatishi natijasida bolada birinchi tabassum yuzaga keladi, u buyumlar bilan o`ynaydi, harakatlari, nutqi, rivojlanadi.

Bolaning rivojlanishi uning ta'lim va tarbiyasi bilan belgilanadi. Buni bola hayotining birinchi oylaridanoq boshlash kerak. Chaqaloqlik davrida boshlangan to`g`ri tarbiya bolaning tetik kayfiyatda bo`lishini, uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlaydi, keyingi yosh davrlarida bola tarbiyasini engillashtiradi.

Bolalar hayotining birinchi yillaridanoq quyidagi printsip: bolada biror bir malaka hosil bo`lishini, u yoki bu psixik protsessining rivojlanishini kutib o`tirmay, organizmning hamma funktsiyalarini aktiv ravishda yaxshilash, psixik protsesslarni faol suratda tarkib toptirish, axloq formalarini rivojlantirish kerak degan printsip bajariladi.

Ilk yoshdagi bolalarning birinchi xususiyati ularning jismoniy va nerv-psixik rivojlanishi o`rtasida mustahkam aloqa bo`lishidadir.

Bu yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan hamma ishlarni meditsina ishlari va tarbiyaviy ishlarga ajratish qiyin. Bolalarning nerv-psixik rivojlanishiga etarlicha e'tibor bermaslik ularning jismoniy rivojlanishiga yomon ta'sir etadi. Aksincha, bolalarning jismoniy rivojlanishiga beparvolik bilan qarash, ularning nerv-psixik o`lishini to`xtatib qo`yadi.

Sogʻlom, jismonan yaxshi rivojlanayotgan bola, kasalga tez chalinmaydi, psixik jihatdan yaxshi rivojlanadi.

Bolalarning salomatligidagi ozgina oʻzgarishlar ham ularning umumiy kayfiyatiga taʼsir etadi-ular sal narsaga achchigʻlanadigan, lanj boʻlib qoladilar, mashgʻulotlarda hamshira-tarbiyachining soʻzlariga kirmaydilar, diqqatlarini bir joyga toʻplay olmaydilar, tez charchaydilar.

Ilk yoshdagi bolalarning jismoniy va nerv-psixik rivojlanishidagi oʻzaro bogʻliqlikni eʼtiborga olib barcha gigienik- sogʻlomlashtirish va tarbiyaviy tadbirlarni moslashtirilgan sistemaga birlashtirish zarur.

Davolash tadbirlarini bajarishda bolaning psixikasini hisobga olish, unga taʼlim beri shva u bilan shugʻullanishda esa uning sogʻligʻi toʻgʻrisida oʻylash kerak.

Ilk yoshdagi bolalarning ikkinchi xususiyati ularning juda tez rivojlanishidir.

Bola bir yoshdalik vaqtida toʻgʻri ovqatlantirilsa, toʻgʻri tarbiyalansa, jismoniy jihatdan juda tez rivojlanadi. Bolalar bir yoshda asosiy harakatlarni egallab oladilar. Bir yoshning oxiri va ikkinchi yoshning boshlarida ikkinchi signal sistemasi, yaʼni bosh miya poʻstlogʻining bevosita qoʻzgʻovchilarigina emas (rang, tovush, katta-kichiklik, buyumlarning shakli) balki bu quzgʻovchilarning oʻrnini bosadigan soʻzlarni idrok qili shva ularga javob qaytarish qobiliyati rivojlana boshlaydi. Ikkinchi signal sistemasi asosida bolaning nutqi oʻsadi va tafakkuri rivojlanadi. Ilk yoshlik davridagi bolalar sal narsaga ham darov xafa boʻladilar, tez-tez va oson, baʼzan esa hatto arzimagan sabablarga koʻra kasallanadilar.

Shuning uchun ilk yoshdagi bolalar tarbiyasining birinchi galdagi vazifasi ularni jismoniy rivojlantirish, chunonchi bolaning sogʻligʻini saqlash va mustahkamlash, nafas olish, qon aylanish, ovqat hazm qilish organlarining normal ishlashini taʼminlash hamda nerv sistemasining qoʻzgʻaluvchanlik holatini saqlashdan iborat. Shu bilan birga bolaning umumiy harakatlarini rivojlantirish, unda madaniy-gigienik malakalar hosil qilish jismoniy tarbiya vazifalaridandir. Bolalarning aqliy tarbiyasi ikkinchi muhim vazifadir. Bola biror bir intellekt namunalari bilan tugʻilmaydi, biroq I.M.Sechenov aytganidek, «bola tafakkurining manbai his qilishda»dir, yaʼni fikr yuritishdan oldin bola oʻzining sezgi organlari:

ko`z, quloq, hid bilish, sezgi va boshqalar yordamida tevarak-atrofdagi narsalarni bila boshlaydi.

Bola hayotining birinchi kunlaridanoq ko`radi, eshitadi, biror narsa tekkanini , og`riq, issiq, hi dva ta'mni his etadi.

Tevarak-atrofdagi borliqni bilish, sezish va idrok qilishdan, ya'ni borliqdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi.

Ilk yoshdagi bolaning idroki ancha takomillashadi va ikkiyoshda u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligi ga ko`ra farq qila boshlaydi, tanish ohangni biladi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: ko`rish va ko`zdpn kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, o`zi ko`rayotgan va eshitayotgan narsasiga taqLid qilish qobiliyatini rivojlanadi.

Bola turli taassurotlar olishi-buyumlarni ko`rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini ko`rishi, xilma-xil tovushlarnieshitish kerak. Bu bolalarning sensor ivojlanishlari uchun zarur sharoit yaratadi. Sensor qobiliyatlarining o`z vaqtida rivojlanishi esa ilk yoshlikdagi bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya vazifalaridan biri bolalarni biror ish bilan shug`ullana bilishga o`rgatishdan iborat. Bu yoshda bolalarning bilim doiralarini kengaytirishga emas, balki ularda bilimlarni egallab olish malakalarini tarkib toptirishga harakat qilish muhimdir.

To`g`ri tarbiyaviy usul yordamida bolalarda shug`ullanish, o`rganish, ya'ni topshiriqni oxirigacha eshitish va tushunish, uni xotirada saqlab qolish va kattalar aytib bergan ma'lum qoidalarga amal qilib topshiriqqa binoan ish ko`rish, tegishli natijaga erishish uchun intilish qobiliyatini erta rivojlantirish mumkin.

Bu qobiliyatni o`z vaqtida hosil qilish bilim va xilma-xil malakalar egallashda, bolalarning fikrlash faoliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Diqqatni tarbiyalash va xotirani o`stirish ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalashdagi muhim vazifalardandir, chunki bu psixik protsesslar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega va uning kelgusidagi faoliyatining muvaffaqiyatli bo`lishi uchun zarur.

Bola nutqining o'z vaqtida va tug'ri rivojlanishi uning aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq yordamida bolalar bilan kattalar o'rtasida xilma-xil munosabatlar o'rnatiladi. Nutq psixik protsesslarining (idrok, xotira va boshqalarning) rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqining rivojlanishi bilan kattalar so'zlarining tarbiya vositasi sifatidagi roli ortib boradi.

Ilk yoshdagi bolalar tarbiyasining uchunchi vazifasi axloq tarbiyasidir.

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi insonlarga bo'lgan munosabatini bildiradi. Kattalarning xatti-harakatlari, ishlari, sodir bo'layotgan voqealarga bergan bahosi, bolaning insonlarga bo'lgan munosabati-bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi.

Yosh bolada avvalo kattalar bilan muomalada bo'lishlikni, yaqin insonlarga mehribonlik va muhabbat, boshqa insonlarga nisbatan xushmuomalalik, kattalarning talablarini xotirjamlik bilan bajara bilishlikni tarbiyalash kerak.

Bolalarning o'zaro do'stona munosabatda bo'lishlarini tarbiyalash o'yinchoqlarni bir-birlaridan tortib olmaslik, ularni boshqa bolalar bilan baham ko'rish, ularga yordamlashishdan iborat. Uyushqoqlikni, mustaqillikni tarbiyalashga, boshqalarning manfaati bilan hisoblashish, insonlarning mehnatini xurmat qili shva qadrlash, buyumlarga ehtiyotkorlik bilan qarash, oddiy topshiriqlarni bajarish, baqirmay gaplashish, salomlashish, xayrlashish, tashakkur bildirish kabi sotsial axloq qoidalarini tarkib toptirishga katta e'tibor berish kerak.

Bolada ilk yoshlik chog'idan boshlab tabiatga qiziqish, muhabbat uyg'otish va barcha jonli narsalarga g'amxo'rlik ko'rsatish odatini hosil qilish kerak. Bu bolaning aql-idroki va his-tuyg'ularini boyitadi, uni shafqatli qiladi.

Bolalar hayotini to'g'ri yo'lga qo'yish natijasidagina ilk yoshdagi bolalar tarbiyasining ko'rsatib o'tilgan vazifalarini bajarish mumkin.

Ilk yoshdagi bolalar tarbiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun yaratilishi lozim bo'lgan sharoitlar quyidagilardan iborat: gigienik sharoitlar, rejim, yaxshi

emotsional sharoit, o`yin va mashg`ulotlarni doimo o`tkazib turish, yordamchi hodimlarning mahorati va yaxshi yo`lga qo`yilgan ishlari.

Bolalar muassasalarini jihozlashda faqat pedagogik talablarni emas balki gigienik talablarni ham e`tiborga olish kerak. Mebellarni bolalarning bo`yi va yoshiga qarab tanlash gavdaning to`g`ri bo`lishini ta'minlaydi, mashg`ulot vaqtida organizmning ortiqcha zo`r berishiga yo`l qo`ymaydi, bu esa umurtqa pog`onasining egilishi va bolalarning uzoqni ko`rolmasligini oldini olishda katta ahamiyatga ega.

U yoki bu asbob uskunaning xavsiz bo`lishi, bolalar travmatizmining ehtimolini istisno qilish, ularni tozalash mumkinligi, yorug` tonlarga bo`yash muhim tadbirlardandir.

Har bir bolani kiyim echish xonasi, yotoqxona, hojatxonalaridagi o`zi foydalanadigan buyumlarning tozaligiga javobgar qilib qo`yish pedagogik va gigienik jihatdan katta ahamiyatga ega.

Ovqatlanish va choy idishlari har bir grupp uchun alohida shkaflarda saqlanishi kerak. Umivalnik, dushxona, vanna, unitazlar bolalarni bo`yi, yoshiga mos bo`lishi hamda gigienik talablarga javob berishi kerak. Ularning o`lchamlari bolalarning undan foydalana oladigan davrajada bo`lishi lozim.

O`yinchoqlar, qo`llanmalar bola hayotida katta o`rin egallaydi va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lib, ham pedagogik, ham gigienik talablarga javob berishi kerak.

O`yinchoqlarga qo`yiladigan gigienik talablar ular tayyorlanadigan materialga, ularning shakli, og`irligi, o`lchami, rangi va bezaklariga tegishlidir.

Yasli yoshdagi bolalarga mo`ljallangan o`yinchoqlarga alohida talablar qo`yiladi, chunki ular bu o`yinchoqlarni og`izlariga oladilar, erga tashlaydilar va hoqazo. Ular uchun chiqarilgan o`yinchoqlar yaxshilab silliqlangan, ulanadigan o`yinchoqlarning diametri (bolalarning yutib yuborishlarini oldini olish uchun) kamida 30 mm bo`lishi kerak O`yinchoqlar yuvsa ketmaydigan, yopishqoq bo`lmagan, hidsiz bo`yoqlarga bo`yalishi lozim. Rezina va sellulyozadan qilingan o`yinchoqlar gigiena qoidalariga mos va oson tozalanadi. Tozalash va zararsizlantirish qiyin bo`lgan yumshoq o`yinchoqlar gigienaga unchalik muvofiq emas.

Gruppa o`yinchoqlari ajratib qo`yilishi kerak. Har bir gruppaga ham xonada, ham uchastkada o`ynash uchun muayyan o`yinchoqlar ajratiladi.

Emizikli bolalar gruppasida yuviladigan o`yinchoqlar kuniga ikki marta maxsus toslarda, issiq suvda sovun va shetka bilan yuvilishi lozim. Katta yoshdagi bolalar gruppasining o`yinchoqlari vaqti-vaqti bilan (kamida 2-3 kunda bir marta) issiq suvda sovun bilan yuailadi. Yumshoq o`yinchoqlarni tez-tez hovliga olib chiqish, changini qoqish, shetka bilan tozalash va dezinfektsiyalash kerak.

Yopiq xonalarga toza havoning Kirishi muhim gigienik talablardandir. Bolalar muassasalaridagi xonalarni toza havo bilan ta'minlash uchun ulardagi havo rejimini to`g`ri tashkil etish katta ahamiyatga ega, bunga tabiiy va sun'iy ventilyatsiya o`yli bilan erishiladi.

Havo sovuq kunlarda bolalar xonalari mumkin qadar tez-tez, kuniga kamida 3-5 marta shamollatilishi kerak. Kechasi-yu kunduzgi gruppalarning yotoqxonalari (bu erda bolalar kun bo`yi bo`lmaydilar) fortochka va framugalar kun davomida ochiq qoldiriladi, biroq havo sovuq kunlarda ularni bolalarning uxlashga yotishidan 30 minut oldin yopib qo`yish lozim.

Bolalar muassasalari binosining sanitariya ahvoliga katta gigienik talablar qo`yiladi, bu esa bir qator kasalliklarning paydo bo`lishi va tarqilishining oldini olish uchun muhimdir.

Shuning uchun bolalar muassasalarida xonalarning va undagi jihozlarning ifloslanishiga qarshi doimo kurash olib boriladi. Xonalardagi oyna va framugalarni ochib qo`yib, ularni xo`l latta bilan artish changga qarshi kurashning eng oddiy va samarali usulidir.

Gigienik sharoitlar yaratishda ilk yoshdagi bolalarning shaxsiy gigienasi muhim o`rin tutadi. Shaxsiy gigiena deganda bolaning sog`lig`ini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar yig`indisi tushuniladi. Bolani asta-sekin ma'lum bir ishlarni bajarishga o`rgata borib, unda bir qator gigienik ko`nikmalar hosil qilish mumkin. Avvalo bolalarda ozodalikka ehtiyoj tarbilash zarur.

Emizikli bolaga qarashda barcha gigienik protseduralar kattalar tomonidan bajariladi, biroq bolalar shaxsiy gigienaga doir oddiy malakalarni egallab olmaganlaricha, bu ishlarni bajarishda qoʻldan kelgancha ishtirok etadilar.

Hamshira-tarbiyachi bolalarning ginienik holatiga qarar ekan, ba'zi bir gigienik protseduralar (soch va tirnoqlarini olish, yuvintirish, choʻmiltirish va boshqalar)bolalarda yoqimsiz tuygʻular uygʻotishi mumkinligini yodda tutishi kerak. Shuning uchun bolalar bilan ishlashda ular uchun yoqimsiz tuygʻular chunonchi: yuvintirish va choʻmiltirish vaqtida bolaning koʻziga sovun tushmasligi, suvning tegishli temperaturada boʻlishi, yoqa va englarning hoʻl boʻlmasligi, soch yoki tirnoqlarni ogʻritmasdan olishga alohida eʼtibor berish kerak.

Hamshira bolalarni kiyintirar ekan, oʻzining shirin soʻzligi va mehribonligi bilan ularga shodlik tuygʻulari uygʻotadi, bu esa madaniy-gigienik malakalarning mustahkamlanishiga yordam berishi mumkin.

Yosh bolalarning sogʻligiga ular kiyimining xarakteri katta taʼsir koʻrsatadi. Bolalarning kiyimi oʻzining asosiy vazifasiga moʻa bulishi – yaʼni organizmda issiq saqlanishiga yordam berishi, bolaning kasallanishiga sabab boʻlishi mumkin boʻlgan isib ketishiga yoʻl qoʻymasligi kerak.

Qulay, engil va chiroyli kiyim bolaning oʻziga mos, oson kiyilib echiladigan boʻlishi, ularning harakatlarini, nafas olish va qon aylanishini qiyinlashtirmasligi zarur. Kiyim toza boʻlishi bolaning kayfiyati va uning sogʻligʻini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Nam, hoʻl va iflos kiyim darhol almashtirilishi kerak, chunki u terini yalligʻlantiribgina qolmay, balki bolani yaxshi isitmaydi ham.

Tarbiyachi yoki enaga bolaga boshqa kiyim-bosh kiydirayotgan vaqtida u bilan gaplashishlari, kiyintirish bilan bogʻliq boʻlgan buyum va haraktarning nomini aytishlari kerak, shunday hilinsa, 9-10 oylik bolalar hamshiraning gaplariga oʻz harakatlari bilan javob beradilar.

2. Kundalik rejimini belgilash va uni Aniq bajarish ilk yoshdagi bolalar tarbiyasining zarur shartlaridandir. Bolaning sutka davomidagi uxlashi, uygʻoqlik vaqt iva turli faoliyat turlarini toʻgʻri taqsimlash avvalo bolaning nerv sistemasini charchashdan saqlaydi, uning kun davomida beozor va yaxshi kayfiyatda boʻlishini

ta'minlaydi hamda organizmning normal ishlashiga imkon beradi. Bolani o'z vaqtida ovqatlantirish, uning etarlicha va yaxshi uxlashi sog'liqni saqlash hamda organizm rivojlanishining asosiy shartlaridandir.

Rejim bolalar hatti-harakatlarining uyushgan bo'lishini tarbiyalashda katta yordam beradi. Agar bola hadeb bir vaqtda uxlasa, sayr qilsa, rejimda belgilangan vaqtda bolada ovqatlanish, uxlash ehtiyoji paydo bo'ladi, chunki bolada shartli refleks hosil bo'ladi va bola bamaylixotir, kattalarning gaplariga e'tiroz bildirmay, ovqatlanadi, sayr qiladi, yuvinadi va uxlaydi.

Yasnilarda, yasli-bog'chalarda, xodimlar faqat qat'iy rejim asosidagina Aniq ishlay oladilar va barcha tarbiya vazifalarini amalga oshiradilar. Shuning uchun har bir gruppada kundalik rejimning o'rnatilishi bolalar muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning asosiy bo'limlaridan bo'lib hisoblanadi.

3. Ijobiy his-tuyg'ularni o'z vaqtida rivojlantirib borish bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir.

Tarbiyachining 1-2 oylik bolalar bilan yoqIMLI, muloyim ohangda gaplashishi bolani kattalarga qarash, uning gaplariga quloq solishga o'rgatibgina qolmaydi, balki unda birinchi tabassum uyg'otadi.

Uch oylik bola kattalar bilan munosabatda kulibgina qolmaydi, balki u har xil tovushlar chiqaradi, qo'l va oyoqlarini qimirlatadi, ya'ni hayajonlanish kompleksi paydo bo'ladi.

Birinchi tabassum va hayajonlanish kompleksining o'z vaqtida paydo bo'lishi, shuningdek bollaarning uyg'oq vaqtidagi quvnoqlik kayfiyati ularning bir yoshga qadar o'sishida katta ahamiyatga ega.

Aksincha, bo'shang, unchalik tuyg'un bo'lmagan bolalarda umumiy rivojlanishning va salomatlikning yomon bo'lishi tez-tez qayd qilinadi; shuningdek, bunday bolalar yaxshi o'smaydilar, semirmaydilar.

4. Yosh bolalar hayotida o'yin katta o'rin egallaydi. O'yin shuningdek, bolalarning xilma-xil faoliyatlari birinchidan, biror maqsadga qaratilgan ta'sir va kattalarning to'g'ridan-to'g'ri o'rgatishlari, ikkinchidan, bolalarning o'yinchoqlar, qo'llanmalar bilan mustaqil ravishda mashq qilishlari, uchinchidan, bolaning

tevarak-atrofdagi hayotdan oladigan taassurotlari, to'rtinchidan, bolalar bilan munosabatda bo'li shva ularning, Ayniqsa o'zidan kattaroq bolalarning, xatti-harakatlariga taqLid qilish natijasida rivojlanib boradi.

Bolalrani ijtimoiy tarbiyalashda maxsus o'yinlar-mashg'ulotlar ta'lim-tarbiya berish protsessining maxsus formalaridandir. Tarbiyachi bunday mashg'ulotlarni o'tkazish oldidan biror mAqsadni belgilaydi. Mashg'ulotlar oldindan tuzilgan plan va dastur asosida o'tkaziladi. Tarbiyachi turli xil metodik usullarni qular ekan, mashg'ulotdan ko'zda tutilgan mAqsadga erishishga harakat qiladi. Mashg'ulotlar uchun tinch sharoit yaratiladi. Maxsus o'yinchoqlar, qo'llanmalar tanlanadi.

Mashg'ulotlarda bolalar xilma-xil buyumlar, ularning xususiyatlari bilan tanishadilar, ularda turli buyumlardan foydalanish malakalari hosil qilinadi, ularning atrofdagi narsa-hodisalarni tushunib olishiga doir bilimlari kengaytiriladi.

Ayni vaqtida bu mashg'ulotlarda bolalarning xotirasi, diqqati, tafakkuri o'stiriladi, shug'ullanish, tarbiyachi aytganlarini tinglash, uning ko'rsatmalariga binoan ish ko'rish malakalari tarbiyalanadi, bular esa bolalarni kattaroq bo'lganda o'qitish uchun muhimdir.

Bolalarning mashg'ulot vaqtida birgalikdagi faoliyati ular o'rtasida yaxshi munosabatlar vujudga kelishiga imkon beradi: ularda o'rtog'ining ishlariga qiziqish, o'yinchoqlari bilan o'rtoqlashish va hokazolar paydo bo'ladi.

Mashg'ulot vaqtida bolaga o'zini to'g'ri tutti, ma'lum bir qoidani bajarish kabi talablar qo'yiladi. Bu talablar asta-sekin murakkablashib boradi va bolalarda o'z xatti-harakatlarini uyushqoqlik bilan olib borishga qobiliyat tarbiyalaydi. Bularning hammasi bollaarni mashg'ulotlarga alohida munosabatda bo'lishga undaydi.

Bolalar, ayniqsa bir-bir yarim yoshli bolalar, faqat kattalar yordamida, ba'zan esa birgalikda harakat qilish yoki ularning ko'rsatishi (masalan, tarbiyachi bolaning qo'lini ushlab, kerakli harakatni takrorlaydi) natijasida biror bir malakani egallab oladilar. Shuning uchun ikki yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan o'yin-mashg'ulotlar asosan individual bulishi kerak.

Bolalarda diqqatning barqaror bulib borishi, ularning topshiriqlarni suzlarga binoan bajarishlariga qarab mashg'ulotlardagi bolalar soni asta-sekin oshirib

boriladi: mashg`ulotlar gruppaviy bo`lib boradi. Dastlab bir mashg`ulotda 3-4 bola qatnashadi, keyinchalik ularning soni 10-12 tagacha etkazilishi mumkin.

Mashg`ulotda qatnashadigan bolalar soni faqat ularning yoshi bilan emas, balki u yoki bu mashg`ulotning xarakteri bilan ham belgilanadi. Masalan, bolalar o`z navbatlarini kutib, uzoq vaqt harakatsiz turib qolishga majbur bo`ladigan mashg`ulotlarni barcha gruppada bolalari bilan bir vaqtda o`tkazish mumkin emas.

5. Ishing tashkiliy tomonlari. Bolalar muassasalarida bolalarning gruppalariga taqsimlanishi ulardagi bolalar soni va yosh sostaviga qarab turlicha bo`ladi. Lekin bunda gruppada barcha bolalarning rejimga rioya qilishlarini va ishning mazmuni bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo`lishini ta'minlash kerak, degan qoidaga amal qilinishi lozim.

Yasli va yasli-bog`chalardagi uch yoshgacha bo`lgan bolalarning soni etarlicha bo`lsa, ular uchta yosh gruppasiga bo`linadilar.

Bir yoshgacha bo`lgan bolalar bo`lmagan yaslilarda ilk yoshdagi bolalar ikki yosh gruppaga bo`linadilar. Agar 1 yoshdan 3 yoshgacha bo`lgan bolalarni uchta gruppaga bo`lish imkoni bo`lmasa, ular bir gruppaga birlashtiriladi. O`z navbatida bu gruppadagi bolalar ikki gruppachaga bo`linadi: 1 yoshdan 1 yosh-u 6-8 oylik bolalar birinchi gruppaga, 1 yosh-u 8 oylikdan 3 yoshgacha bo`lgan bolalar ikkinchi gruppaga kiritiladi.

Yoshi bo`yicha aralash gruppada bolalarning uyg`oqlik vaqti turlichadir, shuning uchun har bir gruppaning rejimi ham har xil bo`ladi. 1 yoshgacha bo`lgan bolalarni kattaroq bolalar bilan birlashtirish yaramaydi chunki ular bilan olib boriladigan ishlarning tashkil etilishi, rejim, o`yindagi jihozlar, o`yinlarning mazmuni, ish metodlari xilma-xil bo`ladi.

Har bir gruppaning o`ziga biriktirilgan xodimlari (hamshira-tarbiyachi, enaga) bo`lishi kerak, bu xodimlar bolalar o`tib borgani sari, ular bilan birga bir gruppadan ikkinchi gruppaga o`tadilar. Bu esa ishning mazmunli va bolalarga nisbatan bo`ladigan muglsabatda uyg`unlik bo`lishini ta'minlaydi, tarbiyachilarning ish malakasini va bolalar kamoloti bobidagi javobgarligini oshiradi, eng muhimi, esa bolalarning bir tarbiyachi qo`lidan ikkinchi bir tarbiyachi qo`liga o`tishida ularni

ranjitmaydi. Bolalar o'z tarbiyachilariga ko'nikib qoladilar, tarbiyachi esa har bir bolani yaxshi bilgan, uning kamolotini kuzatib borgan holda bolaning xususiyatiga muvofiq suratda individual yo'l tutishini ta'minlaydi.

Ammo, bir yoshgacha bo'lgan bolalar bilan ishlashning o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olib, bu gruppaga emizikli bolalarni parvarish qilishda ancha malaka orttirgan hamshira- tarbiyachilarni biriktirib qo'yish ham mumkin. Bunday holda bir yoshga to'lgan bolalar ikkinchi gruppada boshqa tarbiyachi qo'liga 10-14 oylik bolalarning notanish insonlarga o'rganibketishi qiyin bo'lganligi, tarbiyasidagi har qanday o'zgarishlardan ta'sirlanishi sababli, ularning boshqa gruppaga o'tishlarini to'g'ri tashkil etish kerak. Avvalo emizikli gruppa tarbiyachisi har bir bolaning barcha xususiyatlarini ta'riflab berishi, u bilan munosabatda bo'lishning eng samarali pedagogik usullarini aytib o'tishi lozim. Boshqa gruppaga o'tkazgandan keyingi dastlabki vaqtlarda bolaning odatlangan hayot sharoitlarini iloji boricha o'zgartirmaslik-unga yangi rejim belgilamaslik, ratsionini ilgarigi holicha qoldirish, birinchi kunlaridanoq yangi talablar qo'ymaslik, ularning har biriga mumkin qadar ko'proq e'tibor berish lozim.

Katta yoshdagi insonlarning bola bilan munosabatda bo'lishi ilk yoshdagi bolalarning kamol topishida katta ahamiyatga ega. Shuning uchun gruppada ishni tarbiyachilarning bevosita bolalar bilan munosabatda bo'lishi uchun ko'proq vaqt qoladigan qilib tashkil etish kerak. Tarbiyachi bilan enaga bajaradigan ishlarni aniq belgilab chiqqan taqdirdagina bunga erishish mumkin.

Ishlarni taqsimlashda gruppaning ishlashi davomida, ya'ni yaslga birinchi bola kelib, undan oxirgi bolani olib ketgunlariga qadar, tarbiyachi va enaga doimo navbatchilik qiladigan bo'lsin, bolalar kechasi-yu kunduzi yaslida qoladigan hollarda kechasi har bir gruppada tarbiyachi navbatchilik qilishi kerak: tungi vaqtlarda bolalarni faqat enaga nazoratiga qoldirish mumkin emas.

Mazkur gruppadagi barcha tarbiyachilarning ishida izchillik o'rnatilishi juda muhimdir. Buning uchun tarbiyachi navbatchiligi tugagandan so'ng navbatchilikni qabul qilib oluvchi tarbiyachiga bolalarning sog'lig'i va xatti-harakatlarining xususiyatlari to'g'risida, vrach va pedagog belgilagan tadbirlar haqida ma'lumot

berishi, o'tkazilgan tadbirlar haqida so'zlab berishi, qaysi bolalarni sinchiklab kuzatish zarurligini aytishi kerak.

Bolaning bir yoshgacha bo'lgan davri uning rivojlanishida alohida o'rin egallaydi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning asosiy xususiyati ularning jismoniy jihatdan tez rivojlanishidadir.

Bola olti oyga qadar oy sayin 600-700 grammdan, 6 oydan bir yoshga etguncha esa 400-500 grammdan semiradi; uning bo'yi har oyda 2-3 sm ga ortadi. Bola bir yoshga to'lguncha uning dastlabki og'irligi 6-8 kg ortadi, bo'yiga 24-25,5 sm qo'shiladi. Bir yoshdagi bolaning og'irligi o'rtacha 10-10,5 kg, bo'yi 74-75,5 sm ga teng bo'ladi. Bola 7-8 oylik bo'lganida uning sut tishlari chiqa boshlaydi, bir yoshli bolaning 8 ta tishi bo'ladi, gavda tuzilishlari ham ancha o'zgaradi.

7 oylarga kelib, bolaning bosh miya og'irligi ikki marta ortadi. Markaziy nerv sistemasining ish qobiliyati oshadi, shu munosabat bilan bolaning uyg'oqlik vaqti hayotining birinchi kunlaridagi 20-30 minutdan yil oxiriga borib 3,5 soatga ko'payadi.

Bola hayotining birinchi oylaridan boshlab unda barcha sezgi organlar faoliyati rivojlanadi. Ikkinchi oydan boshlab barcha retseptorlardan shartli reflekslar hosil qilish mumkin. 3-4 oylik bola dastlab tovushlarni, keyin esa o'xshash tovushlarni-tovush intonatsiyasini, yaqin insonlarning tovushini notanish insonlar tovushidan farq qiladi. Bola 4 oyda bir rangni boshqa rangdan, onasini boshqa insonlardan ajrata boshlaydi.

Agar bola muayyan sharoitlarda, kundalik rejimga qat'iy rioya qilingan holda tarbiyalansa, bolalarnda 4-5 oylardan boshlab akademik I.P.Pavlov aytgan «dinamik steriotip» tarkib topadi, ya'ni bosh miya po'stlog'ida ichki protsesslarning uyg'unlashgan sistemasi hosil bo'ladi va tayyor javob reaksiyalari sistemasi ishlab chiqiladi. Masalan, agar 9-10 oylik bolalarni ovqatlantirish protsessii doimo muayyan tartibda olib borilsa, bolalarda javob harakatlarining barqaror sistemasi hosil bo'ladi: u qo'lini tushib turgan suvga bemalol uzatadi, bo'yniga oshxo'rak bog'lashlari uchun engagini ko'taradi, ko'lini nonga uzatadi va eydi.

Bir yoshgacha bola asosiy umumiy xarakatlarni egallab oladi. Bir yoshga to'lish oldidan bolada buyumlar bilan muomala qilish yuzasidan dastlabki malakalar tarkib topib boradi. Bola bir yoshga to'lganda nutqining tayyorgarlik bosqichlari rivojlanadi- u kattalarning gaplarini tushunadi va bolaning aktiv nutqi paydo bo'la boshlaydi, shuningdek, unda xilma-xil odatlar paydo bo'ladi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda hosil bo'lgan yaxshi va yomon odatlar ko'pincha mustahkamlanib qoladi, keyinchalik bolaning bu odatlardan kutilish ancha qiyin.

Tarbiya vazifalari, uning mazmunini belgilashda bu yoshdagi bolalarning xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning birinchi xususiyati-tashqi ta'sirlarga bardosh berolmasligi va organizmga darov zahmat etishidadir. Temperatura va muhit sharoitlarining o'zgarishi, kundalik va ovqatlanish rejimining buzilishi bolalarning salomatligiga ta'sir etadi..

Ikkinchi xususiyat-bolaning jismoniy va nerv-psixik rivojlanish o'rtasida mustahkam aloqa bo'lishidadir. Bolalarning nerv-psixik rivojlanishiga etarlicha e'tibor bermaslik ularning jismoniy o'sishiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, sog'lom, jismoniy baquvvat bolalarda tabassum uyg'otish va harakatlarni rivojlantirish zaif bolalarga qaraganda osonroq bo'ladi.

Uchinchi xususiyat-bolalarning o'sish temp i va uning izchilligi kattalar tomonidan bo'ladigan ta'sirga bog'liqligidadir.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida bir yoshgacha bo'lgan bolalar bilan ishlashda quyidagi tarbiya vazifalari bajarilishi kerak: bolalarning sog'lig'i va jismoniy hamda nerv-psixik rivojlanishini ta'minlash, sezgi organlarining faoliyatini oshirish, xilma-xil harakat malakalarini o'stirish, ularda ijobiy his-tuyg'ular uyg'otish, buyumlar bilan ishlash qobiliyatining va nutqqa tayyorlov bosqichlarini rivojlantirish: bolalar uyg'oqlik vaqt i va uyqu rejimini tug'ri tuzish, bolalarning uyg'oqlik vaqtida quvnoq, xushchaqchaq kayfiyatda bo'lishlarini ta'minlash, tevarak-atrofdagi narsalarga yaxshi munosabatda bo'lishni tarbiyalash; ularni bir vaqtda ovqatlantirish, uxlatish va tualetga odatlantirish, bolalarda to'g'ri xulq-atvor tarbiyalash va yomon odatlar paydo bo'lishining oldini olish.

Bola bir yoshgacha bir tekista rivojlanmaydi. Bir yoshgacha bo'lgan davr bir-biridan sifat jihatdan farq qiladigan to'rt davrga: tug'ilgandan 2,5-3 oylikkacha, 2,5-3 oylikdan 5-6 oylikkacha, 5-6 oylikdan 9-10 oylikkacha va 9-10 oylikdan bir yoshgacha bo'lgan davrlarga bo'linadi.

1.2. Bolalarni kichik va o`rta katta yosh guruxlarida tarbiyalash.

Tarbiya vazifalari, mazmuni va metodlari umuman bir yoshgacha bo`lgan davr uchun emas, balki bolalarning har bir yosh davridagi rivojlanishlariga muvofiq ravishda qarab chiqilishi kerak. Bolalar bog`chasida tarbiya dasturi har bir davr uchun ko`proq xarakterli bo`lgan malakalarni belgilab beradi, bular bolalarning umumiy rivojlanishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilarning diqqat-e'tibori avvalo ana shu malakalarni o`z vaqtida rivojlantirishga qaratilgan bo`lishi kerak. Masalan, bola 2,5-3 oylik bo`lguniga qadar unda diqqat qo`yib ko`rish va eshitish malakalarining o`z vaqtida hosil bo`lishiga, o`zini mumkin qadar ko`proq tetik his qilishiga va serzarakat bo`lishiga, bolada tebranish, so`rg`ich, barmog`ini so`ri shva boshqa shu kabi yaramas odatlarning paydo bo`lishiga yo`l qo`ymaslik nihoyatda muhimdir. 9-10 oylikdan bir yoshgacha bo`lgan bolalarda esa nutq o`stirish va narsalar bilan murakkab harakatlar qilishni rivojlantirish asosiy vazifa bo`lib hisoblanadi.

Bir yoshgacha bo`lgan bolalar hayotini tashkil etish. Kundalik rejimning Aniq bajarilishi bir yoshgacha bo`lgan bolalarning to`g`ri o`sishi va rivojlanishi uchun zarur shartdir. 3-5 haftalik bolalar ko`p vaqtlarini uyqu bilan o`tkazadilar. Lekin bolalarning usib borishlariga qarab sutkalik uxlash vaqti kamayadi, shunga muvofiq uyg`oqlik vaqti ortadi. Bolani ikki oyligidan boshlab muayyan rejimga o`rgatish mumkin.

Sutka davomida bolalarning ovqatlanish, uxlash va uyg`oqlik vaqtlari, ularning yoshiga muvofiq ravishda, quyidagi tarzda taqsimlanadi; 1,5 oylikdan 3 oylikkacha bo`lgan bolalar 7 marta, har 3 soatda emiziladi, 1-1,5 soatdan 4-5 marta uyg`oq bo`ladilar, kunduzi 1,5-2 soatdan 4 marta, kechasi esa kechqurun soat 19.30 dan ertalab soat 6 gacha uxlaydilar; 3 oylikdan 5-6 oylikkacha bo`lgan bolalar 6 marta, har 3 soatda emiziladi, ular 1,5 soatdan 4-5 marta uyg`oq bo`ladilar, kunduzi 1,5-2 soatdan 3-4 marta, kechasi esa soat 19.30 dan ertalabki 6 gacha uxlaydilar; 5-6 oylikdan 9-10 oylikkacha bo`lgan bolalar 5 marta har 4 soatda ovqatlantiriladi, 2-2,5 soatdan 4 marta uyg`oq bo`ladilar, kunduzi 3 marta 1,4-2 soatdan, kechasi esa soat 20.00 dan ertalab 6 gacha uxlaydilar; 9-10 oylikdan 1 yoshgacha bo`lgan

bolalar 4-5 marta har 4 soatda ovqatlantiriladi, ular 3 marta 3-4 soatdan uygʻoq boʻladilar, kunduzi 2 marta 2-2,5 soatdan, kechasi esa 20.00 dan ertalab soat 6 gacha uxlaydilar.

Bir yoshgacha boʻlgan bolalarning kundalik rejimi bolaning ovqatlanish oldidan uxlashini, ovqatlangandan soʻng uygʻoq boʻlishini taʼminlaydigan qilib tuzilishi kerak. Agar bir gruppada turli yoshdagi bolalar boʻlsa, bolalarni yosh gruppachalariga aniq taqsimlagan holda, boshqa-boshqa xildagi ikki yoki uchta rejim belgilash zarur. Shunday qilinganda bir gruppadagi bolalar uxlaganda, ikkinchi gruppadagilar uygʻoq boʻladilar. Bu esa bolalarga yaxshiroq qarashga imkon beradi, bundan tashqari bolalar shovqin-surondan kamroq charchaydilar.

Har bir bola uchun rejim belgilashda faqat uning yoshini emas, balki jismoniy rivojlanishini ham eʼtiborga olish kerak. Salomatligi yaxshi jismoniy rivojlangan, nerv sistemasi mustahkam boʻlgan bolalar boshqalardan oldin katta gruppacha rejimiga oʻtkazilishi mumkin. Aksincha, salomatligi zaifroq bolalarga esa kichikroq yoshdagi bolalarning rejimi mos keladi. Bolalarning rejimi sutkalik qilib tuziladi, yaʼni bolaning bogʻchada va uyda boʻladigan vaqti uchun tuziladi. Qabul qilingan qatʼiy amal qilinishi kerak.

Tarbiyachi ertalab bolani yasliga qabul qilish vaqtida bolaning uyda necha soat va qanday uxlaganligini aniqlashi, agar u yomon uxlagan yoki etarlicha uxlamagan boʻlsa, shu kuni bolaning yaslidagi uxlash vaqtini uzaytirishi lozim.

Agar bola soat 6 da uygʻongan boʻlsalar, ularni yaslada 8 da uygʻongan bolalardan oldin ovqatlantirish va uxlatish kerak. Shuning uchun yosh sostavi bir xil boʻlgan guruhlarda hali koʻpincha bolalarni rejimi xilma-xil boʻlgan ikkita guruhga-erta va kech uygʻonganlar guruhchalarga boʻlish zarurati paydo boʻladi.

Bolalar muassasasiga kelgunga qadar boshqa rejimda yashagan bolani asta-sekinlik bilan yangi rejimga oʻrgatish kerak.

Rejim tuzayotganda bolaning uxlash, uygʻoqlik vaqt iva ovqatlanishinigina emas, balki xilma-xil faoliyat turlarini ham toʻgʻri navbatlashib kelishini nazarda tutish lozim. Shuning uchun bolalarning uygʻoqlik vaqtidagi mustaqil oʻyini,

tarbiyachi o`tkazadigan mashg`ulotlar bilan, xonadagi o`yin, sayr qilish bilan, harakatli o`yinlar harakatsiz o`yinlar bilan almashtirib turilishi kerak.

Ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularni ovqatlantirish, uxlatish vaqtin iva tualetni metodik jihatdan to`g`ri o`tkazish kerak. Faqat shundagina bolalarda yaxshi ishtaha bo`lishini, ularning yaxshi uxlashini, yuvintirish va cho`mltirish bamaylixotir munosabatda bo`lishini ta'minlash mumkin bo`ladi.

Bola bir yoshgacha ona sutini emishi zarur. Ona bolani emizishdan oldin qo`lini yuvishi, ko`kragini esa qaynagan suv bilan yuvib olishi kerak. Buning uchun bolalarni yasliga qabul qilish xonasida qaynagan suv solingan idish, toza paxta va foydalangan paxtani tashlash uchun tos bo`lishi lozim.

Bolalar emchak uchini og`izlariga to`la olishlari, ona ko`kragini qo`llari bilan ushlab turishlari, yaxshi emishlari uchun ularning bu boradagi faoliyatini o`stirmoq kerak. Bolada charchash alomatlari paydo bo`lsa, 2-3 minut tanaffus qilish, keyin emizishni Yana davom ettirish lozim. Agar onaning suti kam bo`lsa, vrach qo`shimcha ovqat belgilaydi. Bolaga 3-4 oydan boshlab meva yoki sabzavot sharbati berish kerak. 5 oydan boshlab 5% manniy kashadan iborat qo`shimcha ovqat berilsa bo`ladi. Qo`shimcha ovqat asta-sekin, avval emizishdan oldin, bir kunda 1 marta 3-4 choy qoshiqdan edirib boriladi, so`ngra esa 7-8 kundan keyin 3-4 stakangacha etkaziladi. Emizishlardan biri o`rniga sabzavot pyuresi yoki kasha beriladi. Bolaga 4,5-5 oyligidan boshlab qoshiqda ovqat edirish kerak, 7-8 oyligidan boshlab esa kattalar ushlab turgan piyoladan choy ichiriladi. Bolani ovqatning yangi xiliga va ayni bir zamonda qoshiqda eyishga o`rgatmaslik kerak.

Bolani ovqatlanish vaqtida faollik qo`rsatishga o`rgatish kerak: uning o`zi, kattalarning qistovisiz, og`zini ochsin, 7-8 oylardan boshlab non, pechenelarni qo`lida ushlasin va ularni mustaqil ravishda esin.

Bolaning ovqatlanish vaqtidagi holati uning o`sishiga qarab o`zgarib boradi: bola 4-5 oylardan boshlab yarim o`tirgan holda, 7 oylarda –enaganing tizasida o`tirib, qoshiq bilan eyishni o`tirgandan keyin esa, stulda o`tirib ovqatlantiriladi.

6 oyligidan boshlab, bolani ovqatlantirish vaqtida ovqatlanish bilan bog`liq bo`lgan buyum va harakatlarining nomini aytib, gaplashish kerak.

Bolalar navbatdagi ovqatni kutib o'tirmasligi kerak, hamma narsa oldindan tayyorlangan bo'lishi zarur.

Bolalar jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanishlari uchun har kuni rejimda ko'rsatilgan vaqtga binoan tinch va yaxshi uxlashlari lozim.

Uyqusi kelgan bolalarni birinchi bo'li byotqizish kerak, bolalarning maneja uxlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, darkor. Bolalar ochiq havoda yaxshi uxlaydilar. Agar ochiq havoda uxlatish imkoniyati bo'lmasa, bolalarni oynasi ochib qo'yilgan alohida xonaga yotqizish zarur.

Rejimga o'rganmagan, vaqtida uxlamay yig'laydigan bolalarni yaxshisi boshqa bolalardan keyin va alohida xonada uxlatgan ma'kul.

Odatda bolalar bir vaqtda uyg'onmaydilar. Uyg'ongan bolani xonadan olib chiqish, kiyintirish, ovqatlantirish, maneja o'tqazib qo'yib, o'yinchoqlar berish kerak. Agar bola vaqtda uyg'onmasa uni uyg'otish lozim.

Kichkintoylar gigienik jihatdan yaxshi qarab turishga muhtoj bo'ladilar. Har kuni ertalab bolaning tualetini bekamiko'st o'tkazish kerak. Ertalabki tualet bolalarni yuvintirish bilan tugallanadi (yuvintirishda ham, xudi yuzini yuvish kabi oqib turgan issiq suv bo'lishi kerak).

6 oygacha bolalarni har kuni, keyinchalik esa kun ora cho'miltirish kerak, cho'miltirilgandan so'ng quloqlari orqasiga, ko'ltig'lariga va boshqa qiyiladigan joylariga vazelin yoki o'simlik yog'i surtiladi.

Bolalarni ilk yoshlik chog'idan boshlab ozodalikka o'rgatish lozim. Bu esa kattalarning bolaning iflos qilib qo'ygan kiyim-boshlarini qanchalik tez almashtirishlariga bog'liq. Bolalarni taxminan 8 oylardan keyin gorshokka o'tirishga odatlantirish kerak. Bu ish kun sayin muntazam ravishda va faqat bolalar bunga ehtiyoj sezganlarida: uxlatishdan oldin, uyqudan turgandan keyin (agar ular quruq yotgan bo'lsalar), ovqatlanganlaridan keyin 15-20 minut o'tgach, o'tqizilishi lozim. Bolaga qarash yuzasidan bo'ladigan barcha protsesslarni o'tkazishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur;

a) barcha protsesslarni shoshmasdan bolada nomaqbul tuyg'ular hosil qilmasdan bajarish;

b) bolalarga qarashni ularning ishsiz turishlariga yo'l qo'ymaydigan holda o'tkazish: stolga o'tirishlari bilanoq ovqat berish; bolalarning tualetga va yotoqxonaga 2-3 tasini birdaniga olib borish (qolgan bolalar bu vaqtda o'ynab turishlari mumkin);

v) tarbiyachi har bir bolaning yaxshi ovqatlanishini, o'z vaqtida uxlatilishini, to'yib uxlashini, uning doimo toza, tagi quruq, o'ng'ay va ixcham kiyingan bo'lishini, charchamasligini kuzatib borishi kerak;

g) bolalarni qurbi etadigan harakatlarni, ishlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan protsesslarni bajarishga o'rgatish lozim;

d) ovqatlantirish, uxlatish va tualetni o'tkazishda metodikaning birligi va tarbiya usullarining doimiyliigi zaruriy shartlardandir. Bola bilan munosabatda bo'lishda bola odatlangan usullarning har qanday o'zgarishi uning xatti-harakatiga salbiy ta'sir qiladi.

Sog'lom bolalarni, ularning ikki oyligidan boshlab, maneiga (ochiq havoda) yotqizib qo'yish (ikki oylikkacha bo'lgan bolalarni odayallarga o'rab, qo'llari chiqarib qo'yiladi, 2-2,5 oylardan boshlab ishton, polzunki kiydirgan holda) kerak.

Ularning qarab yotishi uchun har xil rangdagi yarqiragan o'yinchoqlar (bolaning ko'krigidan 50 sm yuqoriga) osib qo'yiladi. Bolalar bu o'yinchoqlarni ushlaydigan bo'lganida (2-3 oyligida), bola qo'lini rostlaganda osonlik bilan ushlaydigan qilib osib qo'yish lozim.

Manejda osib qo'yilgan o'yinchoqlardan tashqarii, turli xildagi shiqildoqlar, rezina yoki sellyuloiddan qilingan o'yinchoqlar bo'lishi kerak, qorni bilan yotgan bolalar bularni olishlari mumkin; yana bolalarning qarab yotishi uchun 2-3 ta kattao'yinchoqlarni qo'yib qo'yish zarur. O'yinchoqlarni har er, har erga qo'yib qo'yiladi, uyg'oqlik vaqtida o'yinchoqlarni almashtirish lozim.

Bolalarning uyg'onish vaqtigacha maneida barcha sharoitlar tayyorlangan bo'lishi kerak.

Har bir maneida, kattaroq bolalarning kichkintoylarga halaqit bermasligi uchun, yoshlari bir-birlariga deyarli teng bo'lgan 6-8 ta uyg'oq bola yotqizib qo'yiladi. Tarbiyachi bolalarning butun mane bo'ylab taqsimlanishiga e'tibor berishi zarur.

Bola uyg`oq vaqtida uning oldiga tez-tez kelib turish, uni erkalatib gaplashish, ashulalar aytib berish kerak. Shunday qilganda bolaning aktivlik faoliyati ortadi va bu faoliyatni ancha vaqtgacha saqlash mumkin bo`ladi.

3 oydan oshgan bolalar bilan mustaqil faoliyat vaqtida munosabatda bo`lishdan tashqarii, maxsus o`yin-mashg`ulotlar (buning uchun ajratilgan vaqtida) o`tkazish kerak.

Mashg`ulotlarni boshlashdan avval hamma bolalarning yaxshi kayfiyatda bo`lishlarini ta'minlash-ishtonini xo`l qilib qo`ygan bo`lsa almashtirish, ba'zi bolalarning holatini o`zgartirib qo`yish, o`yinchoq berish, bolalarda quvnoqlik holatini vujudga keltirish zarur.

2,5-3 oylikdan 5-6 oylikkacha bo`lgan bolalar bilan olib boriladigan o`yin mashg`ulotlar avvalo bolalarning ko`rib va eshitib idrok qilish qobiliyatini o`stirishga kattalarning qo`lidagi o`yinchoqni turli holatdan ola bilishga, gu-gulash va g`u-g`ulashga, bolani emaklashga tayyorlovchi harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo`lishi kerak.

O`yin-mashg`ulotlarni asosan yakka-yakka va manejda emotsional bir suratda o`tkazmoq kerak, bolada tegishli javob reaksiyasi hosil qilishga harakat qalish lozim.

Mashg`ulotlarni ancha passiv va birinchi bo`lib uyg`ongan bolalardan boshlash kerak.

Bola har gal uyg`oq bo`lganda uning bilan turli xil o`yin-mashg`ulotlar o`tkazib turish kerak, ammo hammasini surunkasiga o`tkazish yaramaydi. Tarbiyachi 2-3 bola bilan mashg`ul bo`lgach, birinchi bola yoniga keladi va u bilan Yangi bir o`yin-mashg`ulot o`tkazadi.

Agar biror bir malaka yaxshi mustahkamlangan bo`lib, bola bu malakadan osonlik bilan foydalanadigan bo`lsa, u holda 5-6 bola bilan bir yo`la o`yin-mashg`ulot o`tkazish mumkin. Muzika mashg`ulotlari, surib yurgiziladigan muzika buyumlarini tinglash hamda kuzata bili shva boshqa shu kabilar ana shunday o`yin-mashg`ulotlar jumlasidandir. Buning uchun hamma bolalarni bir qator qilib chalqancha yotqizish kerak, shunday qilganda bolalar tarbiyachini osonlik bilan

kuzatib turadilar va boshlarini u harakat qilayotgan toionga buradilar. Mashg`ulotlarni o`tkazish vaqtida gruppada shovqin-suron va tashqi tovushlar bo`lmasligi kerak. 5-6 oylikdan bir yoshgacha bo`lgan bolalarning tetiklik bilan uyg`oq turi shvaqti 2,5-3 soatgacha cho`ziladi. Shuning uchun bolalarning ancha muddat mustaqil o`ynay olishlarini ta'min qiladigan sharoit yaratish lozim.

Buning uchun bolalarning harakat qilishlariga imkon tug`diradigan etarli joy bo`lishi, ularga zarur bo`lgan miqdorda turli xil o`yinchoqlar berish, bu o`yinchoqlarni tashqi ko`rinishi bilan bolalarni turli xil harakat qilishga undaydigan qilib joylashtirish zarur. Bolalarning ancha muddatgacha va turli xil faoliyat bilan band bo`lishlari uchun o`yinchoqlarni vaqt-bevaqt almashtirib turish kerak.

Bolalar taxminan 7-8 oylik bo`lganlaridan boshlab, ularning uyg`oqlik vaqti maneida o`tkaziladi, bu yoshdagi bolalar o`rinlaridan siljiy boshlaganligi sababli, maneida ko`pi bilan 6-7 bola bo`lishi kerak.

Bolalar yaxshi emaklaydigan va mustaqil suratda to`siqni ushlab turadigan bo`lganlarida, ularning uyg`oqlik vaqti erda o`tkazilishi lozim. Bolalarning polda erkin harakat qilishlari uchun etarli bo`lgan maydon to`siq bilan ajratilishi kerak. 6 oylikdan 1 yoshgacha bo`lgan bolalarga ta'sir etish vositalari o`zgaradi va murakkablashadi.

Bu yoshdagi bolalar (5-6 oylikdan 9-10 oylikkacha) bilan olib boriladigan individual o`yin-mashg`ulotlar vaqtida bola kattalar nutqini ko`proq tushuna boshlaydi, chug`ur-chug`ur va oson bo`g`inlarga taqlid qilishi shakllana boradi, ko`proq emaklay boshlaydi. Kattaroq bolalarning (9-10 oylikdan 1 yoshgacha) aktiv nutqini o`stirish, kattalar nutqini tushunishi davom ettiriladi, ular tevarak-atrof bilan kengroq tanishadilar, ularda narsalar bilan qilinadigan harakatlar tarkib toptiriladi, mustaqil yurish malakasi hosil qilib boriladi.

O`yin-mashg`ulotlarni individual tarzda o`tkazish kerak. Bir uyg`oqlik davomida o`tkaziladigan mashg`ulotlarning oz-ko`pligi va takrorlanishi bolaning individual xususiyatlari, kamolot darajasi va aktivligi bilan bog`liq bo`ladi. Agar bolada Yangi bir malaka sustlik bilan hosil bo`ladigan bo`lsa, u holda mashg`ulotni

bir galgi dam olish davomida takrorlash lozim va uni har kuni o'tkazib turish kerak. Malakka tarkib topgandan keyin esa mashg'ulotni murakkablashtirish zarur.

Bola bir yoshga to'lishi oldida, bolalarning diqqat bilan o'tirishini talab etadigan o'yin-mashg'ulotlarni ularni stulga o'tqazgan holda o'tkazish lozim. Bunda bolaning diqqatini yonidagi bolaning harakati chalg'itmasin. Bu yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan o'yin-mashg'ulotlar bolalarda yaxshi his-tuyg'ular uyg'otishi va o'yin xarakterida bo'lishi kerak.

Bolaning mashg'ulotlar protsessida egallagan malakalarini mustahkamlash maqsadida mustaqil faoliyati vaqtida foydalanishi uchun unga o'yinchoqlar berilishi kerak. Bunda ular shu xildagi harakatlarni o'zlari bajara oladigan bo'ladilar.

5-6 oyligidan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan individualo'yin-mashg'ulotlar olib borishdan tashqari, 6-8 kishini birlashtirgan kichikroq gruppalar bilan ham mashg'ulotlar o'tkazish lozim. Bolalar bu mashg'ulotlar vaqtida individual o'yin-mashg'ulotlar vaqtida hosil qilgan malakalarini mustahkamlaydilar.

Bir gruppalar bolalariga ko'g'irchoq va hayvonlar bilan bajariladigan oddiy harakatlarni: kuchu kovqatlanyapti, yuguryapti, vovullayapti va hokazolarni ko'rsatish; burab yurgiziladigan o'yinchoqlarni, kuchuk va mushuk bolalarini, qushlarni ko'rsatish, bolalar bilan birgalikda sharchalarni sochib yuborish va terib olish, hazil-mutoyiba o'yinlari va muzika mashg'ulotlari o'tkazish mumkin.

Bir galgi uyg'oqlik davomida bitta yoki ikkita gruppaviy mashg'ulot o'tkaziladi, ularning har biri hafta mobaynida bir necha marta takrorlanadi. Oldiga qo'ygan maqsadga erishish va bolalarning qiziqishi kamayib borishiga qarab mashg'ulotlar mazmuni ham o'zgarishi kerak.

O'qitish shakli deganda, talim beruvchilik va o'quvchilarning belgilangan tartibda hamda muayyan rejimda kechadigan mahsus uyushtirilgan faoliyati tushuniladi. O'qitish shakllari o'quvchilarning miqdoriy tarkibiga ko'ra o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro harakatning tabiatiga ko'ra (faollik va mustaqillik darajasi) faoliyat usullariga ko'ra (qaysi metod va usullar bilan) o'tkazilish joyi shuningdek yahlit o'quv jarayonida tutgan mavqeiga ko'ra farqlanadi. Bu mavqe

talim jarayonining u yoki bu shaklid tashkil etishda hal etiladigan talim- tarbiyaviy vazifalarning tabiatiga ko`ra belgilanadi.

O`qitishning tashkiliy shakli bo`lmish mashg`ulotlar uchun quyidagi qator xususiyatlarga xos.

Bolalar mashg`ulotda «Bolalar bog`chasida talim- tarbiya dasturi»da ko`zda tutilgan talimning u yoki bu bo`limga oid ko`nikmalarni o`zlashtiradilar.

Mashg`ulotlar muayyan yosh guruhi bolalarning doimiy tarkibi bilan o`tkaziladi.

Mashg`ulotlar katta kishilar tomonidan tashkil etiladi va o`tkaziladi. Ular mashg`ulotlarning mazmuni va vazifasini belgilaydilar, metodlar va usullarni tanlaydilar bolalarning bilish faoliyatini bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishga yo`naltiradilar hamda tashkil etadilar.

Mashg`ulotlarda dastur mazmunining barcha bolalar tomonidan o`zlashtirilishi amalga oshiriladi, shuning uchun ham ular o`qitishning asosiy shakli hisoblanadi. Boshqa o`qitish shakllaridan bolalarning mashg`ulotlar mazmunini o`zlashtirishga oid tajriba va tayyorgarliklarini boyitish yoki bilimlarni o`zlashtirish jarayonini aloxida o`zgartirish vositasi sifatida foydalaniladi. Sabab o`tilgan xususiyatlar mashg`ulotlarni o`qitish shakli sifatida maktabdagi o`qitish shakli-darsga yaqinlashtiradi, bu bilan o`qitishdagi ketma-ketlik ta'minlanadi. Dars va mashg`ulot o`rtasidagi asosiy farqlar yuklatishning intensivlik darajasida o`qitish ishini olib borishda qo`llaniladigan tuzilish va metodlardadir.

Mashg`ulotlar o`qitishning quyidagi bo`limlari bo`yicha olib boriladi atrof-muxit bilan tanishtirish va bolalar nutqini o`stirish elektor matematik tasavvurlarni rivojlanitirish, tasviriyl faoliyat va qurish- yasash, jismoniy tarbiya musiqaviy tarbiya.

Mashg`ulot dasturi quyidagilarni ko`zda tutuadi: obektlarning xususiyatlari va sifalari, ularning o`zgarishlari, aloqalari xarakter usullari va xarakterlar xaqidagi bilimlarning muayyan xajmini, ularni dastlab o`zlashtirish, kengaytirish mustahkamlash umumlashtirish va sistemalashtirish.

Faoliyatning mahsuldor turlarida qo'llaniladigan amaliy ko'nikma va malakalar xajmi. O'quv -bilish faoliyatining ko'nikma va malakalari xajmini, ularning dastlab shakllanish yoki takomillashuvini, qo'llarga oid mashqlarni. Psixik va bilish jarayoni sifatlarini rivojlantirish vazifalarini. Muayyan mashg'ulotda beriladigan bilimlarga, voqea va xodisalarga bolalar munosabatini shakllantirish o'z faoliyatiga munosabatini tarbiyalash tengqurlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'rnatish, shuningdek, o'qitish mashg'ulotlari sharoitida yurish-turish qoidalari va normallarini o'zlashtirishni.

Shunday qilib, mashg'ulotlar mazmuni xam ta'limiy ham tarbiyaviy vazifalarni ular birligida va o'zaro xarakatda xal etishga yo'naltirilgandir.

Xar bir mashg'ulotdagi o'quv mazmunining xajmi uncha katta bo'lmaydi. U turli yosh guruhlardagi bolalarning xotira va qobiliyatlarini xisobga olgan xolda belgilanadi.

Masalan kuzatish chog'ida yangi obektlar bilan tanishtirishda kichik tarbiya yoshi guruxdagi bolalar 2-3 yorqin belgini eslab qolish , o'rta tarbiya yoshi guruxiga mansub bolalar 3-4tagacha katta tarbiya yoshi guruxdagilar esa 5-6 tagacha belgini eslab qolishga qodirdirlar.

Bolalar bog'chalaridagi mashg'ulotlarning tuzulishida bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni tekshirish o'tkazilmaydi. Bu ish bolalarning mashg'ulotlaridagi faoliyatni kuzatish jarayonida bolalar faoliyati natijalarini tahlil qilishda shuningdek kundalik hayotda va bolala yutuqlarini turli ilmiy metodikalar yordamida o'rganish chog'ida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar barcha bolalar bilanyalpisiga olib boriladi. Bu uni tashkil etilishi va bolalar faoliyatiga rahbarlik qilishga aloxida e'tiborni talab qiladi. Avvalo bolalarning umumiy yuqori ish qobiliyatini ta'minlaydigan gigienik sharoitlar yaratilishi lozim. Mashg'ulolar toza, yaxshi shamolantirilgan, bolalar bo'yiga mos mebellar bilan jihozlangan honada o'tkazilishi lozim.

Har bir aniq mashg'ulot uchun uyuushtiriladigan vaziyat amalga oshiriladigan o'quv faoliyatining tabiatga mos bo'lishi kerak.

Bolalar xonada ularning faoliyat ko'rsatishlari uchun imkoniyat juda yaxshi bo'ladigan tartibda joylashtirilishi zarur: bolalar stolda tarbiyachiga ro'para bo'lib yoki yarim doira yasab o'tirishlari, birlashtirilgan stollar atrofida o'tirib yoki tura olishlari kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'qitishda ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanish buyumli, tasviriy chizmali kabi xilma-xil ko'rgazmali materiallarni qo'llanish bilan bog'liqdir. Ulardan biri bolalarning birgalikdagi faoliyatida foydalaniladi, boshqalari tarqatma material sifatida ishlatiladi. Mashg'ulotni tashkil etishda materialning oqilona joylashishini ko'zda tutiladi, undan foydalanish izchilligi, tavsiya etish usuli u bilan ishlash tabiatni beliglab olinadi.

Sayr -tomosha o'qitish shakli sifatida. Sayr -tomosha mashg'ulotining o'ziga xos turi sifatida qarash mumkin. Mashg'ulotlarda bo'lgani kabi sayr-tomoshada xam dastur mazmunida aniqlashtiriladigan ta'limiy rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi hamda xal etiladi.

Mashg'ulotlarda bo'lgani kabi sayr tomoshada barcha yosh guruhdagi bolalar ishtirok etadilar. Biroq sayr-tomoshani tashkilot etilishining o'ziga xos xususiyati bolalar faoliyatining mazmuni shuningdek uning ta'limiy ish sistemasidagi o'rni sayr-tomoshani bolalar bog'chasida ta'limni tashkil etishning o'ziga xos yalpi shakli sifatida qarab chiqishga ehtiyoj uyg'otadi.

Sayr tomosha bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy ishning tashkiliy shakli sifatida paydo bo'lgan maktablarda tabiiy fanlarni o'rganishda keng qo'llanilib kelingan. Biroq bolalarning sayr-tomoshadagi bilish faoliyati tabiati-hayotiy hodisalarni bevosita idrok etish kuzatish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun xam xosligi isbotlanadi. Sayr-tomoshada turli umumlashagnlik darajasidagi tasavvurlar shaklida shakllantiriladigan buyumlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ta'limiy ishlar dasturi talablariga javob beradi. Bularning barchasi sayr-tomoshani bolalar bog'chasidagi tashkil etiladigan ta'limning muxim shakliga aylantirilgan.

Sayr tomoshaga bolalarga beriladigan hilma-xil topshiriqlarning kiritilish u yoki bu metodlardan asosiy vazifa kuzatiladigan obektlar haqidagi yorqin ko`tarinki va tiniq tasavvurlarni ta'minlash talabiga javob berishi lozim.

Sayr-tomoshada asosiy obektlarni idrok etish bolalardan diqqatlilikni, uyushgan xulq-atvorni talab qiladi. Zotan rang-barang obekt va xodisalar, ba'zan tanishtirish uchun rejalashtirilmagan narsalarga duch keladilar.

Bularning barchasi sayr-tomosh o`tkazishda muayyan qiyinchiliklar tug`diradi va tarbiyachidan uni o`tkazishga puxta tayyorgarlik ko`rishni talab qiladi.

Sayr-tomoshani o`tkazish uchun odatdagi mashg`ulotdan keng ko`lamli ta'limiy vazifa tanlab olinadi u kuzatuvchanlikni, qiziqishni ijobiy munosabatni rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi mazmunga ega bo`lishi mumkin va xokazo.

Ta'limiy vazifalarning aniq mazmuniga qarab sayr-tomosha yo`nalish, tuzulish ishlab chiqiladi, metodlari belgilanadi. Sayr tomosha o`rnini belgilayotganda uning bolalar muassasasida uzoq-yaqinligini ham xisobga olinish kerak-sayr tomosha joyiga olib boriladigan yo`l toliqtiriladigan bo`lmasligi lozim.

Sayr-tomoshaga tayyorgarlik ko`rishda bolalar to`plashi mumkin bo`lgan narmsalar belgilanadi, materialni tashib yurish uchun xam, uni keyin joylashtirish uchun xam tegishli anjomlar xozirlanadi.

Sayr tomoshada olingan tasavvurlarni chuqurlashtirish va mustaxkamlashga oid keyingi ishlar mashg`ulotlar sistemasida va kundalik xayotda: tasviriy faolitada, qurish-yasashda hikoya qilib berishda bolalar mehnatida amalga oshiriladi. Mashg`ulot so`ngida yakuniy suhbat o`tkaziladi.

Tarbiyachisi kun bo`yi o`qitishni bolalarni tashkil etishning hilma-xil shakllaridan foydalangan xolda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Sayr vaqtida tabiat xodisalarini kattalar mexnatini bolalar bilan yalpi kuzatish o`tkaziladi. Vaqti-vaqti bilan kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarga ularg ma'lum, ular sevib qolgan adabiy asarlarni o`qib beradi. Kundalik hayotda bolalar bilan turli metodlardan foydalanib olib boriladigan ta'limiy ishlar barcha hollarda uning asosiy shakli-mashg`ulot bilan uzviy bog`liqdir. Bunda ikki vazifa hal etiladi: keyinroq mashg`ulotlarda qo`laniladigan tasavvurlar yoki xarakat tajribasining oldindan

to'plnish yoki ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish, mashg'ulotlarda olingan tasavvurlarni mustaxkamlash.

Shu maqsadlarda kundalik pedagogik jarayonda o'qitishning bolalarning uncha katta bo'lmagan miqdorini qamrab oluvchi guruxli shakli qo'llaniladi. Bunda avtodidaktik o'yinlardan ko'proq foydalaniladi. O'qitishning guruhli shaklida o'sha bolalar yoki boshqalari bilan hilma-xil alohida mashqlar olib boriladi. O'qitishning alohida va guruhli shakllaridan foydalanish uning tabaqalanishini bolalar o'quv-bilish faoliyati rivojlanishining darajasini birmuncha aniqroq xisobga olishni va ularning mashg'ulotlardagi o'qitish jarayoniga faol kirishishini ta'minlaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning umumiy rivojlanishi shu jumladan aqliy rivojlanishining yuqori sur'atlari ta'limini turli yosh guruxlarida tabaqalashtirilgan xolda tashkil etishni taqazo etadi. Bunda ta'limning o'ziga xosligi o'quv jarayonining quydagi asosiy tarkibiy qismlrida uning mazmunida, tuzulishida, metodlari va tashkiliy shakllarida namoyon bo'ladi.

Kattalarning ta'limiy ta'siri bola xayotining deyarli birinchi oylaridanoq boshlanadi.

Bola xayotining birinchi yilida bu ta'sirning asosiy vazifalari va mazmuni quyidagilardir: bola sensorikasining rivojlanish sezgi va idrokning:

A) ko'rish taktik xamda eshitishning shakllnishi.

B) buyumli xarakatlarning rivojlanishidan:

Xarakatlar: avval emaklash, so'ng esa yurishning rivojlanishidan.

G) bolalar nutqining rivojlanishidan iborat.

Bu vazifalarni xal etish chog'ida bolalarda kattalar ta'siri ostida buyumlarni tanish, kattalarning nutqini tushunish, ayrim tovush brikmalari va dastlabki so'zlardan faol foydalana olish malakalarini shakllantirish zarur.

Bolalar ayrim buyumlarni ularning xususiyatlariga ko'ra bilib olishni o'rganadilar, bunda murakkab bo'lmagan xarakatlarni egallaydilar.

Kattalarning bir yoshli bolalarga ta'limiy ta'siri avvalo bola bilan yakkama-yakka muloqatda bo'lish va uning mustaqil faoliyatini o'yinchoqlar didakatik materiallar va qo'llanmalar bilan tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Yakkama-yakka muloqot albatta erkalovchi, xotirjam nutq asosida olib borilishi kerak.

Ikki yoshli bolalarga ta'lim berish jarayoni bir muncha maksadga yo'nalganlik va rejalilik tabiatini kasb etib boradi. Ta'lim jarayonida birinchi yilda tavsiya etilgan vazifalar xal etiladi, bular: sensorikani rivojlantirish, buyumli xarakatlar va buyumli faoliyatni rivojlantirish. Biroq bolalarning voqealikda xarakat qilish birmuncha ko'zga tashlanib boradi. Bolalar yaqin atrofdagi buyumlarni ayniqsa, yorqin ajratib turadigan buyumlarni farqlashga, ulardan foydalanishga o'rganadilar. Ular maishiy ahamiyatga molik buyumlar va narsalar bilan: mebel, kiyim bosh, idish-tovoq, o'yinchoqlar bilan tanishadilar: ayrim xayvonlarni farqlab va uning nomini ayta oladilar ularning asosiy qismlarini xarakat tabiatini farqlaydilar.

Bolalarda o'simliklar xaqidagi dastlabki tasavvurlar xam paydo bo'ladilar. Bu tasavvurlar ularni idrok etish chog'idagi bilib olish darajasida xamda rasm va o'yinchoqlarni ko'rib chiqish paytida shakllanadi. Bolalar ta'lim jarayonida asta-sekin o'xshash belgilari bo'lgan buyumlarni bir so'z bilan atash dastlabki umumlashmalar chiqarish malakasini xam egallaydilar.

Tasavvurlarni shakllantirishning butun jarayoni nutq egallash jarayoni bilan birgalikda kechadi.

Ta'limning mazmuniga buyumlar bilan bajariladigan xilma-xil xarakatlarni shakllantirish xam kiritiladi: didaktik o'yinchoqlar bilan, qurilish materiallari bilan turli xil buyumlar bilan qilinadigan xarakatlar. Shuningdek uning mazmuniga syujetli o'yinchoqlar bilan qilinadigan xarakatlarga o'rgatish xam kiradi: avtomobilni g'ildiratish, qo'g'irchoqni ovqatlantirish uni uxlatish va xokazo.

Asosiy xarakatlarni rivojlantirish, shuningdek muzika tarbiyasi -muzika sadolarini farqlanishning dastlabki belgilarini fanga tutish ta'limining muxim bo'lishiga aylanadi.

Shunday qilib ikki yoshli bolalarga bnriladigan ta'limning mazmuni ko'p qirrali yvnalish kasb etadi.

U bolalarning atrof-muxitda dastlabki xarakatini, nutqining rivojlanish va dastlabki (belgilarni) bilish va amaliy ko`nikma xamda shakllarning shakllanishini ta'minlaydi.

Natijada bolalar xayotining dastlabki uchinchi yilida ularda boshlang`ich o`quv ko`nikmalarining elementar asoslari shakllanadi: kattalar ko`rsatmalariga ko`ra xarakat qilib o`zlariga tavsiya etilagan mazmuni o`zlashtiradilar 4 yoshli bolalarni o`qitish quydagilarni ko`zda tutadi.

yaqin atrofdagi buyumlar va xodisalarni tushunishlarini, ularning xususiyatlari xaqidagi aniq tasavvrlarning shakllanishini yanada rivojlantirish.

Sezgi va idrokni yanada takomillashtirish, sensor etalonlar sistemasi xaqidagi bilimlarni va ulardan ijodiy faoliyatining turli ko`rinishlarida foydalana olish ko`nikmalarini shakllantirish.

O`quv faoliyatining dastlabki malakalari: vazifasi qabul qila olish, kattalrni tinglay va eshita olish, qo`yilgan savollarga javob bera olish ko`nikmalarini shakllantirish.

Bolalar nutqini rivojlantirish: lug`at boyligi va bog`lanishi nutqni yanada kengaytirish.

Bolalarning uch-besh yoshligida o`qitishning mazmuni ko`p qirrali bo`la boradi. Bu kattalar mehnatini uning asosiy tarkibiy qismlarida shu jumladan, mehnat natijasi bo`lishi buyumlar xaqidagi tasavvurlarda jonsiz tabiat haqidagi o`simlik va hayvonlar xaqidagi tasavvurlarni o`zlashtirishda amoyon bo`ladi. Ta'lim dasturiga bolalar tomonidan o`zlashtirish lozim bo`ladigan murakkab bo`lmagan yo`llar va usullar tasviriy -badiiy faoliyat malakalarini shakllantirish kiritiladi. Bolalar tasviriy materiallar bilan tanishtiriladi.

Ular buyumlarni so`ng syujetni chizma orqali tasvirlashga oid dastlabki malakalarni egallaydilar, tasvirdagi obrazni anglash keyin uni maqsadga muvofiq yaratish ko`nikmalarini o`rganadilar. Buyumlarda umumiy hususiyatlarni va shu bilan birga aloxida o`ziga xoslikni ko`rish va tasvirlashni o`rganadilar: mazkur belgilarni chizma va ranglardan bera oladigan bo`ladilar. Ifodali nutqqa, qo`shiq aytish va xarakatlarga o`rgatish musiqa jo`rligida kechadi. Mashg`ulotlarda o`qitish

va kundalik hayotda faol xarakat tajribasining to'planishi yuz beradi. Bolalar harakatning asosiy turlariga oid malakalarni va jismoniy mashqlarni o'zlashtiradilar. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatishda ho'jalik-maishiy mehnatda elementar mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirish davom etadi.

Ta'limning metod va usullari bilimlar ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xam o'quv faoliyatining tarkibiy qismlarini rivojlantirishga xam yo'naltirilgandir.

Bolalarga ikkinchi kichik va o'rta guruxlarda ta'lim berishda birinchi kichik guruxda bo'lgani kabi ko'rgazmali va amaliy metodlardan: kuzatish, rasmlarni tamosha qilish va diafilmlarni namoyish qilish o'yin metodlari va boshqalardan foydalaniladi. Ilk marta tajribalar bolalar tomonidan ayrim izlanish harakatlarini o'quv faoliyati metodlaridan biri sifatida egallanish asosida o'rta yosh guruxlarida qo'llaniladi. Tarbiyachi ko'pincha xikoya qilib berish bolalar bop kitoblarni o'qib berish kabi og'zaki metodlarga murojat qiladi. Ilk marta suhbat o'tkazila boshlanadi.

Kuzatishning o'rta yosh guruxida foydalaniladigan asosiy turi bu tanlab olish maqsadidagi kuzatishdir. Biroq vaqti-vaqti bilan uzoq muddatli kuzatish xam bo'lishi mumkin. Kuzatish chog'ida hilma-xil tekshiruv va izlanish harakatlaridan, bevosita idrok etish tushuntirish asosidagi taqqoslashdan shuningdek, topishmoq va xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan foydalaniladi. O'rta guruhdagi kuzatishga raxbarlik qilishning asosiy usuli tarbiyachining savol berishidir. O'quv ko'nikmalarining etarlicha tarkib topmaganini ixtiyoriy diqqatning beqarorligini hisobga olgan holda ayrim qiziqarli usullardan foydalanish zarur.

Xarakatlarni baxolash asta-sekin o'zgaradi: kichik guruxlardan qo'llaniladigan bolalar xarakatlarini majburiy maqullashdan tarbiyachi topshiriqning bajarilish sifatini baxolashga o'tadi. Bunda baxolashning umumiy ijobiy tabiati saqlanadi. Ikkinchi kichik guruxdagi tabiat ko'nikma va bolalar bog'chasi binosi ichida maqsadli sayr va yurib tomosha qilishlar o'tkazila boshlaydi.

II-BOB . BOLALAR BOG`CHASIDAGI O`QITISHNING SHAKLLARI

2.1. Mashg`ulotlar bolalar bog`chasida o`qitishning asosiy va etakchi shakli sifatida.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga karatilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.

Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg`ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o`yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o`z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o`z-o`ziga xizmat qilish, sayrlar o`tkazish gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog`chasidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to`g`ri tashkil etishga bog`liqdir.

Bolalar bog`chasining pedagogik jarayonida ta'lim muxim ahamiyat kasb etadi va u kundalik xayotda, o`yinda, mehnatda, mashg`ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg`ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi xayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o`stirish va savod o`rgagish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo`yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko`nikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo`lgan bilim, malaka va ko`nikmalar bolalar bog`chasi dasturida belgilab berilgan bo`lib, u bolalarning umumiy rivojlanishida va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg`ulotlarda ta'lim berish didaktika printsiplari asosida bolalarning yosh va o`ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo`ladi.

Dasturda har bir yosh guruhida hafta davomida o`tkaziladigan mashg`ulotlar soni va har bir mashg`ulot qancha davom etishi belgilab qo`yilgan. Tarbiyachi mana shunta asoslanib, o`zining xaftalik mashg`ulotlar jadvalini tuzib oladi, bu ta'limning hamma bo`limlari bo`yicha belgilangan ta'limtarbiya ishlarini to`g`ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi. Mashg`ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

1. Dasturning hamma bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni haftaga teng taqsimlash.

2. Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg'ulotlar qo'yiladi.

3. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.

4. Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg'ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi xayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Ikkinchi mashg'ulotga engilroqlari: tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'uloti va shunga o'xshashlar rejalashtiriladi.

5. Kun davomida mashg'ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va hokazo.

Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini engilroq o'zlashtirib olishiga imkon yaratadi.

O'yin bolalarning muxim faoliyati xisoblanadi. U bolalarning jismoniy va ruxiy rivojlanishida, shaxs sifatida shakllanishida va bolalar jamoasining tashkil topishida muxim ahamiyat kasb etadi. O'yin bolaga quvonch bag'ishlaydi, ijobiy xis va kechinmalarini, xayotdan olgan taassurotlarini aks ettiradi. O'yin mazmuni bola shaxsining shakllanishiga muxim ta'sir kursatadi, shuning uchun kattalar bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularda tevarak-atrofdan olayotgan taassurotlari ijobiy tomonini aks ettirish xoxishini uyg'otishlari kerak.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, ularning tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi bilimlarini boyitadi (bu orqali o'yin mavzusi, mazmuni, syujeti boyiydi), bolalarning ahloqiy hislarini, o'zaro ijobiy munosabati va odatlarini tarbiyalaydi. O'yindan bolalardagi o'zaro o'rtoqlik, do'stlik, bir-biriga yordam ko'rsatish xislatlarini tarbiyalashda va bolalar xayotini tashkil etish shakli sifatida foydalanadi.

Bolalarning o'yin bilan shug'ullanishi va mehnat qilishlari uchun kerakli materiallar bilan ta'minlaydi, shu orqali bolalar uyinining mehnat bilan uyg'unlashib ketishiga erishadi.

Tarbiyachi bolalarning syujetli-rasmlı o`yinlarining hamma xilini syujetli-rolli, kurilish dramalashtirilgan tabiiy materiallar bilan o`ynaydigan qilib tashkil etadi. Bolalarga o`yin harakatlarini o`rgatadi, tengdoshlari bilan bo`ladigan munosabatlarda haqqoniylik printsiPGA rioya qilishni uqtiradi. Shu bilan birga u bolalardagi ijodkorlik, tashabbuskorlik, faollik va boshqa xislatlarni qo`llab-quvvatlaydi.

Ijodiy o`yinlar ertalabki qabul paytida, kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi sayrda, ya'ni mashg`ulotdan tashqari hamma vaqtda tashkil etilaveradi.

Rejimda qoidali o`yinlar katta o`rinni egallaydi. Mashg`ulotlarda va mashg`ulotdan tashqari vaqtda o`ynaladigan didaktik va xarakatli o`yinlar muxim rol uynaydi. Tarbiyachi bolalarning sensor rivojlanishini, aqliy tarbiyasini, bilish jarayonlarini didaktik o`yinlar orqali amalga oshiradi. Harakatli o`yinlarda bolalarning jismoniy madaniyatini tarbiyalash uchun yaxshi shart-sharoit yaratish kerak.

Harakatli o`yinlar ertalabki va kechki sayr soatlarida tashkil etilib, kuniga 1-2 marta butun guruh, yoki guruxcha bilan o`tkazilishi kerak. O`rta va katta guruxlarda turli xil sport o`yinlari o`tkazib turiladi. Hamma o`yinlar uchun kun tartibidan vaqt ajratish va kerakli materiallar bilan ta'minlash tarbiyachining zimmasiga yuklatilgan.

Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaktida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalar o`zlariga tanish bo`lgan didaktik va harakatli o`yinlarni o`ynaydilar, xoxlagan rasmlarini chizadilar, xoxlagan narsalarini (plastilindan) yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xoxlagan badiiy asarlarini tinglaydilar.

Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtda bolalarning o`z-o`zini tashkil eta bilish qobiliyati o`shishiga, xulq madaniyati irodaviy sifatlarining tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllaniga yordam beradi.

Bolalar bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy ish yagona jarayon bo`lib, hamma ta'lim-tarbiyaviy ishlarning bir-biriga bog`liqligi printsiPGA rioya qilishni takozo etadi.

1. Dasturning har bir bo'limi bo'yicha tevarak-atrofdagi xayot va ijtimoiy voqealar bilan tanishtirish, nutqni o'qitish, musiqa tarbiyasi, matematika va shunta o'xshashlar bo'yicha bolalar bilan olib boriladigan ishda faqat shu bo'limga taalluqli vazifalargina hal etilmay, shu bilan bir qatorda har tomonlama tarbiyalashning bir qancha vazifalari ham amalga oshirib boriladi. Masalan: tasviriy faoliyat mashulotining asosiy vazifasi bolalarga estetik tarbiya berishdir. Shu bilan birga bolalar bu mashg'ulotlarda buyumlarning so'z bilan ifodalanishini, shakli, katta-kichikligi, rangi, o'ziga xos xususiyatlarin bilib oladilar, axloqiy sifat va munosabatlarni egallab oladilar.

Mashg'ulotlarda bolalarga bilim berish, tasavvur va tushunchalarini kengaytirish, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda intizomlilik va xulq madaniyati kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanib boradi. Bolalar tarbiyachining boshqa tomonlari, masalan, mustaqillik, faollik, ijodiy qobiliyat, boshlagan ishni oxiriga etkazish, birgalashib o'ynash va ishlash, bamaslaxat ish tutish kabi shaxsiy sifatlar har xil o'yin va mashg'ulotlar, mehnat va maishiy faoliyat bolalarning butun xayoti davomida tarbiyalanib boradi.

2. Tarbiyachi dasturning u yoki bu bo'limi bo'yicha ishlarni rejalashtirayotganda boshqa bo'limlar bo'yicha ham mana shu yo'nalishda nima ishlar amalga oshirilganini e'tiborga olishi kerak. Masalan, suhbat, hikoya qilib berish, bolalar o'yinini tashkil etishdan oldin tarbiyachi bolalarning mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, sayrlarda, badiiy adabiyotni o'qib berganda olgan taassurotlariga asoslanishi lozim. Tarbiyachi bolalarning syujetli-rolli, saxnalashtirilgan, ko'rinish kabi ijodiy o'yinlarini tashkil etishda tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorlanishda qaysi badiiy adabiyotlarni o'rganish, qanday qushlar va hayvonlarni kuzatish, qanday ashulalarni ijro etishlari, qanday ekskursiyalarga borishlari lozimligini e'tiborga olishi kerak. Bu boshqa tasavvurlariga asoslanib o'yin mazmunini, rasm qurish-yasash mavzusini belgilash imkoniyatini yaratadi va ta'lim-tarbiyaviy ishlarning har xil bo'limlari o'rtasida bog'liqlik bo'lishini ta'minlaydi.

Ishning bunday tashkil etilishi dasturning hamma bo'limlari bo'yicha bolalar egallab olishlari lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarni yaxshiroq o'zlashtirib

olish, ulardan o'z faoliyatlaridagi har xil vaziyatda ham foydalana olish malakasini tarbiyalaydi. Shu bilan birga bolalarda o'z-o'zini tashkil eta bilish, mehnat madaniyati, o'z faoliyatini rejalashtirib olish, ma'lum maqsad bilan harakat qilish kabi shaxsiy sifatlar tarbiyalanadi.

Yasli-bog`chalar, bolalar bog`chalari xalq maorif sistemasidagi boshqa o`quv-tarbiyaviy muassasalaridan bolalar hayoti va tarbiyacisini o`ziga xos tashkil etishi bilan ajralib turadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tarbiyasi maqsad va vazifalarini amalga oshirish ular hayotini tashkil etishning asosiy xususiyatlarini belgilab beradi.

2.2. O`qitishning kundalik hayotdagi tashkiliy shakllari.

Yasli bog`chalarda bolalar hayotini tashkil etish har tomonlama tarbiyalash vazifalariga kompleks yondoshish asosida, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli va metodlari birligi asosida quriladi.

Hayotning tashkil etish-bu hayot faoliyatning asosiy jarayonlarini turli yosh guruhlaridagi bolalarning yakka, kichik guruhlar va umumiy guruhlar shaklidagi faoliyati va ta'limini maqsadga muvofiq joriy etish, birga qo`shib olib borish va navbatlashtirib turish, shuningdek har bir bolani har tomonlama va garmonik tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratishdir.

A.S. Makarenko bola hayotini to`g`ri tashkil etishning uning tarbiyasi va rivojlanishidagi rolini ta'kidlab shunday degan edi: «Tarbiyaviy ishning haqiqiy mohiyati umuman, sizning bola bilan ko`rgan suhbatlaringizda, bolaga ko`rsatadigan bevosita ta'sirda emas, balki oilangizning, shaxsiy va ijtimoiy hayotimizning va hamda bola hayotining tashkil etilganligidadir».

Hozirgi paytda bolalar bog`chalarida o`quv tarbiya jarayoni sifatini oshirish va bolalar hayotini tashkil etish zarurati vujudga keldi.

Bolalar bog`chalari ta'lim-tarbiyaviy va sog`lomlashtirish ishining barcha bosqichlarida bolalarning yosh guruhlaridagi hayotini tashkil etish takomillashib kelgan va bunga fiziologlar, psixologlar, pedagoglar (e.I.Tixeeva, e. A. Flerina, A. P. Usova, N. M. Shelovanov, N. M. Aksarina va boshqalarning) tadqiqotlari asos bo`lgan. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishning quyidagi umumiy printsiplarini ishlab chiqqan.

1.Bolalarning har bir yosh guruhlardagi birgalikda hayot tarzi. Bu printsip asosida guruhdagi barcha bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni jamoatchilik ruxida tarbiyalash uchun bir xil sharoitni ta'minlash ko`zda tutiladi.

2.Guruhlarni komplektlashning yosh printsiplari bolalarning har bir guruhida bir yoki ikki yoshning bo`lishni taqozo etadi va ularning yosh xususiyatlarini xisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini ta'minlaydi.

3.Guruhning bolalarini har tomonlama faoliyati va muloqoti uchun zarur moddiy muhitini yaratish. Bu printsipga ko`ra guruhlar xonalarini va uchastkalarini

pedagogik gigienik va estetik talablarining yagona birligi asosida jixozlash va obodonlashtirish amalga oshiriladi.

4.Kun tartibining doimiyliigi va yosh xususiyatiga bog`liqligi. Ilk va maktabgacha tarbiya yoshida asosiy hayotiy faoliyat ritmi bir xil emas. Ilk yoshdagi birinchi va ikkinchi guruh bolalarining o`z xatti- harakatini idora etishdagi ixtiyoriy qobiliyatining yo`qligi nochorligi ular hayotini tashkil etishda har bir bolaga parvarish uchun ko`p vaqt ajratish zaruratini keltirib chiqaradi. Kun tartibini bajarishda o`z-o`zini tashkil eta olish ko`nikmasi tufayli mashg`ulotga, o`yinga, mehnatga vaqt qoladi.

Bolalar hayoti bu faqat kattalarning bo`lg`usi hayotiga tayyorgarlik emas, bolalalik davri bolalarni qiziqtiradigan va uni zavqli qiladigan, ular tomonidan ijtimoiy tajribaning o`zlashtirilishini ta'minlaydigan rang-barang faoliyat bilan qiziqarlidir.

5.Turli faoliyat ko`rinishlarini (o`yin, mehnat, ta'lim) joriy etish: ularning kun tartibidagi o`rni, bolalarning rivojlanish darajasiga ko`ra bu faoliyat turlarini qo`shib va navbatlashtirib turish, bola shaxsining shakillanishidagi roli.

Kun mobaynida o`yinlar, mehnat va ta'lim uchun vaqt ajratiladi. Ularning bolalar bog`chasidagi turli guruhlaridagi o`rni bolalarning yosh imkoniyatlariga yakka tarzda yoki guruh bo`lib harakat qila olish ko`nikmasiga, bir-birlari bilan muloqotda bo`la olish malakasiga bog`liq. O`yin faoliyati va boshqa faoliyat turlarining asta-sekin kuchaya borishi ham ahamiyatga ega bo`la boradi.

6.Yosh guruhlarida bolalar hayotini ular hayoti va sog`ligini muhofaza etishga yo`naltirilgan holda tashkil etish. Mazkur printsip asosida yasli bog`chalaridagi yosh guruhleri uchun xonalar ajratiladi, mebel va jihozlar tanlanadi, qo`llanma va materiallar joylashtiriladi, ovqat tayyorlanadi, chiniqish sistemasi va harakat faoliyati rejimi joriy etiladi. Tarbiyachilar, enagalar va bolalar, shuningdek bolalar o`rtasidagi munosabatlarda vazminlik, olijanoblik, insonparvarlik ruhi hukum suradi. Ziddiyatlar oldi olinadi va odilona hal etiladi, bolalar asabiyliyining payi qirqiladi.

7. Bolalar hayotini tashkil etishda estetik talablarga rioya qilish ulardan faqat xonalarni jihozlashda foydalanishni emas, balki pedagogik jarayonda foydalanishni ham ko`zda tutadi.

Bolalar muassasalariga borish bola uchun katta qiyinchiliklar tug`diradi. Bunda ko`pchilik bolalar betoqat, yig`loqi, odamovi bo`lib qoladilar. Tahlikali holat, hayajon tufayli zo`riqish bola atrofida yaqin kishilarning bo`lmasligi, maishiy sharoitning ko`nikilgan sharoit va hayot tarzining o`zgarishi tufaylidir.

Funksional norasidalik, ko`ngli noziklik bola organizmining yangi sharoitga ko`nikishini qiyinlashtiradi.

Bolalar bog`chasiga kelishi bilan bolaning ijtimoiy ahvoli ham o`zgaradi. U oilada cheklangan miqdordagi odamlar bilan muloqotda bo`lar, ko`proq oila a'zolari diqqat markazida bo`ladi. Maktabgacha tarbiya muassasasida esa u bolalar jamoasi a'zosiga, boshqa bolalar tengdoshiga aylanadi. Shu tufayli bolaga psixologik jihatdan o`zini qayta qurishga o`z xulqini o`zgartirishga, notanish katta kishilar va tengdoshlari bilan aloqaga kirishga to`g`ri keladi. Bularning barchasi bola faoliyati va xulqida shakllangan odatlarning buzilishiga olib keladi, undan yangi sharoitlarga biologik va ijtimoiy jihatdan moslashishni talab qiladi.

Biologik jihatdan moslashish deganda tor ma'noda organizmning yangi hayot sharoitiga maqsadga muvofiq moslashishni ta'minlaydigan fiziologik sistemasining qayta qurilishi tushuniladi. Ushbu qayta qurish tug`ma mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Yangi tug`ilgan bola uning tug`ilishidan so`ng maxsus yaratilgan sharoitga tezda moslashadi.

Biologik qayta qurish bolaning maktabgacha tarbiya muassasidagi dastlabki kunlarda ham kechadi. U kun tartibida belgilangan yangi havo va yorug`lik rejimiga, ovqatlanishdagi o`zgarishlarga ko`nikishi lozim. Biologik moslashish qatorida ijtimoiy moslashish amalga oshiriladi, ya'ni o`z xulqini yangi ijtimoiy sharoitga ko`ra o`zgartirish qobiliyati hosil qilinadi.

Bola oiladayoq kattalar, oila a'zolari bilan dastlabki muloqotga kirishadi. U atrof-muhit bilan muloqotga kirishishining dastlabki ko`nikmalarini o`zlashtiradi, unda elementar mehnat harakatlari shakllanadi, uyinlar paydo bo`ladi.

Bola oila a'zolari o'rtasidagi munosabat normalarini o'zlashtira boshlaydi, ular asosida esa xulqning elementar ko'rinishlari shakllanadi. Bola bog'chaga kelishi bilan shakllangan xulqiy odat va munosabatlar ancha o'zgaradi. U tengdoshlari bilan faol aloqaga kirisha boshlaydi. Uning hayoti oila a'zolari tomonidan emas, balki kattalar tomonidan yangi qoida va rejimga ko'ra tashkil etiladi, unga yangi talablar qo'yiladi. Shunday ekan, bola atrofdagi sharoit o'zgarishlariga tez moslashishini, yangi odatlarni singdirishi yoki mavjud odat va xulq shakllarini qayta qurishi lozim.

Biologik va ijtimoiy moslashishlar o'zaro bog'liq va ular bir-birini taqozo etadi. Maktabgacha tarbiya yoshidan, ayniqsa, ilk yoshda muhit va odatdagi hayot tarzining o'zgarishi ruxiy zo'riqishga olib keladi, bu ruhiy holatni o'zgartiradi, xatti-harakatda buzilishlarga olib keladi (jizzakilik, tengdoshlari bilan janjal boshlanadi, sustlik paydo bo'ladi va boshqalar) uyqu yomonlashadi va ishtaha yo'qoladi shu bilan birga boshqa funktsional sistemalarda (vegetativ) reaktiv sistemasida ham bir muncha siljishlar paydo bo'ladi, organizmning himoya kuchi susayadi, bu esa ko'pincha kasalliklarga olib keladi. Bu holatlar bolalarda turli darajada ifodalanadi va o'zlashish mexanizmlarning etarlicha mashq qildirilmagani bilan izohlanadi.

Bolalarning o'zlashish imkoniyatlari o'rtasida katta farq mavjud ular ayniqsa bolalar bog'chasida bo'lishning daslabki kunlarida yorqin namoyon bo'ladi. Juz'iy ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarni ko'proq 9 10 oylikdan 1,6 yoshgacha va 3 yoshda 3,5 yoshgacha bo'lgan bolalar kiyinroq kechiradilar. engil moslashishdan nutqiy faollikning susayishida, xatti-harakatdagi ba'zi buzulishlarda, uyquning va ishtaxaning yomonlashuvida namoyon bo'ladigan qisqa muddatli salbiy ruhiy holat kuzatiladi. Odatda, bu holatlar bolalar bog'chasida bo'lishning dastlabki ikki xaftasi davomida kechadi.

O'rta darajadagi moslashish xatti-harakatdagi birmuncha katta va uzoq davom etadigan siljishlarda ifodalanib, u faqat oyning oxirida normallasadi. Bola qisqa vaqt ichida ozadi nutqi buziladi, asoratlarsiz tugaydigan engil 7-10 kun davom etadigan kasalliklar vujudga keladi.

Og'ir moslashishda bolaning ko'nikishi uzoq va murakkab kechadi, ba'zan bir necha oyga cho'ziladi. U tez-tez qaytalanib turadigan, asoratli kechadigan kasalliklar, xatti-harakatlarning barqaror buzulishi, qator holatlarda asabiy holatlar birgalikda voqe bo'ladi. Jismoniy rivojlanishning susayishi, nutq va ruhiyatda o'sishning kechishi kuzatiladi.

Moslashish davrining qiyinchiliklari, moslashishga oid siljishlarning ifodalanganlik darajasi tarbiyaning ilgarigi sharoit bilan ham uzviy bog'liqki, uning ta'siri ostida bolaning oliy nerv faoliyati sistemasi shakllanadi.

Bolani ijtimoiy tarbiya sistemasiga olib kirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tayyorlov bosqichdagi pediatriya xizmati, ota-onalar va maktabgacha tarbiya muassalarining kuch-g'ayrati bola organizmini yangi sharoitdagi hayotga, tayyorlashga uning biologik moslashishini engillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bunga quyidagicha erishiladi: a) bola kun rejimini bolalar muassasasi rejimiga o'ta yaqinlashtirish bilan; b) uni rejim jarayonlariga faol qatnashtirish bilan; v) chiniqtiruvchi usullardan keng ravishda kompleks foydalanish bilan; g) bola organizmi ish qobiliyatini o'stirish uchun zarur harakat faolligini oshirish bilan.

Ota-onalarning pedagogik savodxonligi va ularning tarbiyachilar bilan aloqa o'rnatishi ushbu talablarni amalga oshirishning shartidir. Ota-onalar yakka suxbatlar, eslatishlar orqali bola hayotining tayyorlov davrida tashkil etishga oid tavsiyalar oladilar. Ular ovqatlantirish, uxlatish metodikasi bilan tanishadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni shakllantirishga, buyumli va o'yin harakatlarini yo'lga qo'yishga oid tavsiyalar oladilar. O'z navbatida tarbiyachilar ham bolalarning uylariga boradilar, ularning hayoti bilan, kichkintoylarning qiliqlari, sevimli o'yinlari va o'yinchoklari bilan tanishadilar, bola bilan u ko'nikkan sharoitda dastlabki ruhiy aloqa o'rnatadilar.

Bolani bolalar muassasasidagi yangi sharoitlar talablariga o'rgatish izchil tarzda amalga oshiriladi. Bir hafta davomida bola bolalar bog'chasida 2-3 soatdan ko'p bo'lmaydi. Bu vaqt uning ruhiy holatiga qarab asta-sekin ko'paytirib boriladi.

Bolalarni qabul qilishda bog`cha xodimlari bolalar hayotini ularning ahvoli, alohida o`ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan holda tashkil etishlari uchun uzoq vaqt talab etiladi.

Moslashish davrida (2-3 hafta) bola emlanmaydi, barcha mavjud odatlari, xatto salbiy odatlari ham saqlab qolinadi, uyidagi o`yinchoklardan foydalanishga ruxsat etiladi. Ijtimoiy moslashishning ko`pchilik bolalarda murakkab kechishi va cho`zilib ketishining asosiy sababi bola qoshida yaqin kishilarining yo`qligi va odamlar bilan muomala tajribasining kamligidir (N. D. Vatutina). Shuning uchun bolaning bog`chadagi dastlabki kunlarida uning yonida onasining ham bo`lishiga yo`l qo`yiladi, u notanish sharoitni o`zgartirishga, tarbiyachi bilan aloqa o`rnatishga, so`ng u bilan hamkorlik qilishga yordam beradi. Bolaning vaqti-vaqti bilan kuladi bo`lishi, unga e'tibor bilan suyib muomila qilish, tarbiyachi tomonidan maqtalish unga nisbatan ishonch va ijobiy munosabat yaratadi, boshqa kattalar va tengdoshlar bilan aloqa o`rnatish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Ijobiy xis-tuyg`ular, bolani mikro-ijtimoiy muhitga olib kirgan tarbiyachiga o`rganish tufayli unda tengdoshlari bilan muloqatga kirishga istak va intilish shakillanadi. Bunda guruhda bolaga quyiladigan talablar birligini saqlaydigan doimiy tarbiyachilarning ishlashi muhimdir.

Harakatli o`yinlar jismoniy tarbiya va musiqa mashg`ulotlarida birgalikdagi harakatlar xis-hayajonli zo`riqishni kamaytiradi, quvonch va zavq baxsh etadi, muomalaga ehtiyojni oshiradi. Shunday qilib, ijtimoiy aloqalarning kengayishi, pedagogik ta'sirini to`g`ri tashkil etish, moslashish davrining kechishini osonlashtiradi, bolani boshqa bolalar bilan birgalikda hayot kechirishga tezroq ko`niktirishga imkon beradi.

Bolalar xayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kun tartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Kichkina rpyh bolalarining ko`p vaqti guruh xonasida o`gadi. Yaxshi jixozlangan xona, o`yinchoq va qo`llanmalarni to`g`ri tanlash bolalarning to`la qonli xayot kechirishining asosiy sharti xisoblanadi. Guruh xonasidagi o`yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 2-3 ta bo`lib o`ynashlarini e'tiborga olib joylashtirilishi,

«Oila», «Bolalar bog`chasi» va shunta o`xshash o`yinlarni o`ynashlari uchun o`yinchoq burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, xarakatlanuvchi o`yinchoqlar ham bo`lishi kerak, qolgan o`yinchoqlar, rasmlar shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o`ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak. Harakatlarni rivojlantiruvchi jixozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg`ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jixozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo`yiladi.

II kichik guruh. Moddiy muhit ikkinchi guruh bolalari uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek tashkil etiladi. Bundan tashqari kuzatish va mehnat uchun (tabiat burchagiga akvariumda baliq, to`rlarda qushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. Bog`cha maydonchasida sport o`yinlari bilan shug`ullanish uchun maxsus joy bo`ladi, u kerakli anjomlar bilan jixozlab qo`yiladi: velosipedda uchish uchun yo`lka, tirmashib chiqish uchun jismoniy tarbiya narvonchalari, muvozanatni saqlash uchun ma'lum balandlikda yotqizilgan g`o`la va shunga o`xshashlar bo`ladi. Olib chiqilgan o`yinchoqlarni o`ynash uchun maxsus stollar, skameykalar, suv bilan o`ynash uchun maxsus idish, qum yashigi bo`lishi kerak.

O`rta guruh. Guruh xonasi uxlash xonasi, tualet xonasi va echinish xonasi bo`lishi kerak.

Guruh xonasi bir necha bo`limdan iborat bo`lishi kerak. Birinchi o`yin bo`limida qo`g`irchok bilan o`ynash uchun hamma kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf bo`ladi. Ikkinchi o`yin bo`limida qurilish materiallari qo`yiladigan shkaf va ular bilan o`ynash uchun joy ajratiladi. Shu xonaning yana bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug`ullanishlari uchun kerakli materiallar qo`yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o`yini bilan shug`ullanishlari uchun o`yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalarga yaqinroqqa joylashtirgan ma'qul. Xona amaliy san'at asarlari va ko`kalamzorlashtiruvchi o`simliklar bilak bezatiladi.

Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o'simliklar bilan to'silib, jismoniy mashqlar va sport ermak o'yinlari uchun kerakli asboblari bilan jixozlanadi.

Katta rpyh. O'yin bo'limlari bolalarning yoshiga mos holda, o'rta guruh xonasi kabi jixozlanadi. Gurux xonasida yana mashg'ulot o'tkaziladigan bo'lim ajratiladi va u erga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, doska joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o'ynashlari uchun hamma kerakli materiallar ular bemalol foydalana oladigan qilib joylashtirilishi kerak (stollar, o'yinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafu, tokchalar va boshqalar). Tabiat burchagi qo'l mehnati bilan shug'ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanadigan burchak, musiqaviy faoliyat burchaklari bo'lishi kerak. Bulardan tashqari bolalar bemalol, erkin harakat qilishlari uchun kattagina bo'sh joy bo'lishi zarur. Maydonchada sport o'yinlari, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, irg'itish uchun kagta joy ajratiladi. Syujetli o'yinlar uchun o'yinchoqlar ham bo'ladi.

Tayyorlov guruhi. Bu erdagi mashg'ulot o'tkaziladigan bo'limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo'yiladi. Guruh xonasidagi jixozlar zarurat tufayli ,shug'ullanganda o'yinga joy bo'shatish maqsadida boshqa tomonga surib qo'yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o'yinlari va har xil o'yinlar uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u erda bolalar o'zlari gul va sabzavotlarni etishtiradilar.

Bolalar xayotini tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar xayotini tashkil etish, bolalarning bogchada 9-12 soat bo'lishi kun tartibida belgilab qo'yilgan. Bunda ertalabki qabul muxim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning bog'chadagi vaqti qiziqarli, sermazmun o'tishni ta'minlaydi.

Buning uchun ertalab bolalarni ochiq chexra bilan kutib oladi, ota-onalari bilan xushmuomala, xayrixox munosabatda bo'ladi. Ertalabki qabul vaqtida ijodiy o'yinning hamma turlari tashkil etiladi, tabiat burchagida kuzatish, bolalarning gurux xonasidagi, ovqat va mashg'ulotlardagi navbatchiliklari, nonushtadan oldin ertalabki gimnastika va yuvinish tashkil etiladi. Nonushta vaqtida tarbiyachi bolalarning ovqatlanish madaniyatini nazorat qilib turadi.

Nonushtadan keyin dasturda ko`rsatilgan vaqt mobaynida mashg`ulot o`tkaziladi. Mashg`ulotgacha va mashg`ulot o`rtasi o`yinlar tashkil etiladi. Qanday o`yin o`tkazilishi mashg`ulotning mazmuni va xususiyatiga bog`liq. Bolalar o`tirib shuullanadigan mashg`ulotdan oldin harakatli o`yinlar, jismoniy tarbiya va musiqaviy mashg`ulotdan oldin tinch o`yinlar o`ynashadi. Mashg`ulotdan keyin sayr o`tkaziladi. Tarbiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni, kattalar mehnatini, ijtimoiy xayot voqealarini kuzatishni tashkil etadi. Xarakatli o`yinlar o`tkazadi, mustaqil o`yin o`tkazishni taklif etadi. Mana shu vaqt ichida bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, didaktik o`yinlar, ijodiy o`yin turlari bilan shug`ullanishlari uchun katta e`tibor beriladi. Maqsadli sayrlar uyushtiriladi. Sport o`yinlari va mashqlar, jismoniy dam olish va shunga o`xshashlar bolalarning harakat faolligini o`stirishga ham katta ahamiyat beriladi.

Bolalarning sayrdan qaytishlari, echinib yuvinishlari, tushki ovqat va kunduzgi uyqu ham juda uyushqoqlik bilan o`tishi kerak.

Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni uyg`otib, faoliyatga kirishlarini ta'minlaydi va kechki nonushta tashkil etiladi. Keyin musiqaviy yoki jismoniy tarbiya mashg`uloti o`tkazilishi mumkin. Kechki sayrga quyidagilar kiradi: hamma ijodiy, didaktik o`yinlar, tinch harakatli o`yinlar, kuzatish, qo`l mexnati, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyati, ko`ngil ochishlar (haftada bir marta). Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar xayotini tashkil etishga qo`yiladigan asosiy talab har bir bolaning mazmunli va qiziqarli faoliyat bilan shug`ullanishini, ularning har tomonlama rivojlanishi va baxtli bolaligini ta'minlashdir.

Shunday qilib, kun davomida bolalar xayotini tashkil etishga quyidagi talablar qo`yiladi:

1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug`ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.
2. Har bir yosh guruhida faoliyat turlarini almashtirib borish.
3. Bolalarning harakat faolligini etarlicha ta'minlash.
4. Mashg`ulot, o`yin, mehnat, maishiy faoliyat o`rtasida aloqa o`rnatish.

5. Bolalarning olgan bilim, malaka, ko`nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo`llay olishga o`rgatish.

6. Bolani faol bo`lishga, har doim biron narsa bilan mashul bo`lishga o`rgatish.

7. Har bir bolani ijobiy xoxish va qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.

8. Bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi.

9. Kun tartibiga qat'iy rioya qilish.

Ta`lim shakli deganda ta`lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma`lum bir vaqtda o`tkaziladi.

Ta`lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o`rtasidagi o`zaro ta`sir xususiyatiga, o`tkazish joyiga, shuningdek kun tartibida egallagan o`ringa qarab bir-biridan farq qiladi.

Bolalar bog`chasida ta`limning frontal (umumiy), gruppaviy va yakka tartibdagi shakllardan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta`lim berish ishlari ekskursiya, dedaktik o`yinlar orqali, kun davomida bolalarning Mashg`ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o`yinlariga rahbarlik qilish jarayonida va shunga o`xshashlarda amalga oshirib boriladi.

Mashg`ulot bolalar bog`chasida bolalarga ta`lim berishning asosiy shaklidir. Mashg`ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta`lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy-gigienik, xulq madaniyati, gaplashishi nutiqi, sanoq - hisob harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko`nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta`lim berishda bosh rolni mashg`ulot egallaydi. Mashg`ulotlar bolalar bog`chasida ta`limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma`lum o`rin va vaqt ajratilgan. Mashg`ulot tarbiyachi rahbarligida o`tkaziladi, tarbiyachi mashg`ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarni esa aniqlab, mustahkamlaydi, bolalarning amaliy mashg`ulotlarini tashki etadi. O`quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg`ulot bolalarni maktabga tayorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg`ulot yaxshi tashkil etadigan bo`lib qoladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta`lim berish natijasida bilimga qiziqishlari rivojlana boardi.

Bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir birlariga faol ta`sir etishadi, o`z tashabbusi, topag`onligini namoyon qilish imkoniyati tug`iladi. Bolalar oldiga umumiy zo`r berishni talab etivchi vazifa qo`yilganda birgalikda qayg`urishadi, jamochilik hissi shakillanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o`yinlarini ijro itish, badiiy asarlarni eshitish, o`qishda paydo bo`lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do`stona jamoasini yara`tishga yordam beradi, birga ishlash, yashashga o`rgatadi. Mashg`ulotda ta`lim berish orqali bolalarda maktabdagi o`xishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o`zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to`qri sifatlar hosil qilinadi.

Bolalarni maktab ta`limiga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang`ich sinflarda dastur materialini yaxshi o`zlashtirib olishlarini ta`minlovchi bilim va malakalar moshg`ulotlar jarayonida hosil qilinadi.

Mashg`ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan voqeadagi asosiy g`oyalarni ajratib olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e`tibor beriladi.

Tayyorlov guruhlarida mashqulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol tafakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab borildadi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik hissi takomillashtirib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi.

Bolalarni mustaqillika o`rgatish ishi muntazam amalga oshirib boriladi.

Bolalar bog`chasida kichkintoilarni tevarak-atrofdagi xaet tabiat bilan tanishtirish,ularning nutqini, eng oddiy matematika tasavvurlarini o`stirish

mashg`ulotlari, musiqa mashg`ulotlari, tasviriy san`at moshg`ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya moshg`ulotlari olib boriladi.

Ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan moshg`ulotlar katta yoshdagi kishilarning har bir bola bilan rejarli suratda muomalada bo`lishidan iborat bo`lib, bu mashg`ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va xarakatini rivojlantirib borishdir; bu esa bolalarni mashg`ulotlarga tayyorlash bosqichidir; go`daklar ixtiyoriy diqqat o`sib borgan sari bunday mashg`ulotlar bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalarni bilan bir yo`la olib boriladi.

Mashg`ulotlarda ta`lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo`r berishni talab etadi, ya`ni u bolaning aktiv faoliyati bilan bog`liqbo`lib, bola ma`lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg`ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatni e`tiborga olish zarur: mashg`ulotning vaqtini, kun tartibidagi o`rnini, dasturning har xil bo`limlarini tog`ri olmashtirib turishni oldindan o`ylab, aniq belgilab olishi zarur.

Mashg`ulotlarni kunningbirinchi yarmida o`tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki, birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug`liq bilan yaxshi ta`minlangan bo`ladi.

Har bir yosh guruhda necha marta mashg`ulot utkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg`ulot yosh guruhlari bo`yicha necha daqiqa davom etishi bolalar bog`chasi tarbiya tasturida ularning yosh xususiyatlarini e`tiborga olgan xolda belgilab berilgan.

Birinchi kichik guruhda mashhulot bolalarni ikki guruhga bo`lgan holda o`tiladi. Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo`ladi. Mashg`ulot setkasini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriroq bo`ladigan kun tanlanadi. Ma`lumki, haftaning o`rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarninig ish qobiliyati yuqori bo`lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvchi murakkabroq mashg`ulot tanlanadi (elementar matematika, nutqni rivojlantirish, savodga o`rgatish va h. k.) Jadval tuzganda bu mashg`ulotlarni birinchi qo`yish kerak, bolalardan ko`p harakat qilishni, hissiy nagruzkani talab etuvchi

mashg'ulotlarni (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo'yiladi.

Bolalar o'zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo'lishi kerak. Bog'cha dasturi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tabiaya eshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni (bular tabiatga muhbbat uyg'otadi, o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash hissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishini nazarda tutadi bilimlarni o'zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shaqriga, o'z vataniga, xalqiga muqabbat, ulug' kishilarga muqabbat va hurmat, o'lkaniing ijtimoiy haetiga qiziqish paydo bo'ladi. Maktabgacha tarbiya eshidagi bolalarda ijtimoiy hodiisalar, voqealar to'g'risida umumlashgan tasavvurlar tarkib topadi. Masalan, qo'shni o'lkalardaga bolalarning hayoti, oddiy kishilarning mehnati, boshqa xalqlarning hayoti va do'stligi haqidagi dastlabgi bilimlar asosida vatan to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Tarbiyachi yangi mashg'ulotlarning mazmunini belgilar ekan, ular u yoki bu mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan qanday bog'lanishini o'ylab ko'radi. Msalan, oshpaz, kutubxonachi bilan o'qitvchining mehnati haqidagi ma'lumotlar sistemasining bir qismidir. Pochtadagi turli xodimlar mehnati haqidagi bilimlar sistemasining bir qismi. Mehnatning ijtimoiy xarakteri, mohiyatini tushunish uchun bola shunga o'xshash ko'pdan-ko'p mehnat turlari bilan tanishishi lozim.

Mashg'ulotning turlari. Didaktik maqsadiga ko'ra mashg'ulotlar quydagi xillarga bo'linadi: bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlar, bolalarning egallagan bilimlarini mustahkamlovchi va sistemaga solivchi mashg'ulotlar; bolalarning bilimini tekshiruvchi-sinovchi mashg'ulotlar; kompleks mashg'ulotlar.

1. Bolalarga Yangi bilim bero'vchi mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad-ularni yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, voqealar to'g'risidagi bilimlarni aniqlash va kengaytirishdir. Bo'nday mshg'ulotlarga yangi ob'ektni kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg'ulotlar hamma yosh guruhlarida o'tkaziladi.

2. Bolalarning to'plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg'ulotalr. Undan ko'zlanga asosiy maqsad idrok etilgan narsalarni

anglab olish va dastlabki umumlashtirishga. Buning uchun tanish ob`ekt kuzatiladi, ikki narsa solishtiriladi (xona o`simliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o`yinlar, suhbatlar o`tkaziladi. Bunday mashg`ulotni o`tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o`zlashtirib olgan-u, nima yaxshi o`zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg`ulot jarayonida bolalarning bilimini yangi narsalar – detallar bilan boyitib boradi.

3. Bolalarning bilimini sinovchi mashg`ulotlar. Bunday mashg`ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo`yicha o`zlashtirilishi lozim bulgan bilim va malakalarni o`zlashtirib oldilarmi-yo`qmi, shuni bilib oladi va o`zining bo`lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg`ulotni tarbiyachi o`z xohishi bilan kvartal, yarim yil va yilning oxirigida, shuningdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o`tkazishi mumkin.

4. Kompleks mashg`ulotlar bolalar bog`chasi tajribasida keng tarqalgan bo`lib, bunday mashg`ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarini amalda qo`llashga o`rgatiladi. Bolalar bog`chasida tasviriy faoliyat konstruksiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutiqni o`stirish, savdo o`rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg`ulotlari o`tkaziladi. Mashg`ulotga to`g`ri tayorgarlik ko`rilib, uyushgan holda o`tkizilganda, bolalar oldigi ma`lum aqliy vazifa qo`yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyushtiradi va ularning diqqatini ma`lum tomonga yo`naltiradi. Eng avvalo bolaning aqliy vazifani hal etish yo`lidagi qiyinchilikni engish imkoniyati to`g`iladi, natijada bolada faoliyatga qiziqish uyqonib, u malakani egallash uchun mustaqil intiladi, o`ylaydi va vazifaning uddasidan chiqish uchun faqim-farosatini ishga soladi.

Nusqa olish tarizdagi vazifani bajarish natijasida bola tarbiyachining ko`rsatmasi, namunasiga qarab malaka va ko`nikmalarni o`rganadi. Bu bolalarning amaliy va aqliy faoliyat usullarini egallab olishlari uchun zarurdir. Bolalar qalamni, mo`yqalamni, qayshini ushlashni, rasm chizish, narsa yasash, solishtirish,

umumlashtirish, abstraksiyalashni o`rganadilar. Tarbiyachi bir narsaning hadeb takrorlanaverishiga yo`l qo`ymasligi kerak.

Mashg`ulotning tuzilishi. Mashg`ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism.

Bolalar mashg`ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o`ylab olinishi kerak. Bolalar o`quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e`tibor bilan tinglab, o`yindan mashg`ulotga osanlik bilan o`tadilar.

Tarbiyachi bolalarni yig`ib, ularning mashg`ulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi ko`rinishi, joy-joyiga to`g`ri o`ltiriganligi, diqqatini to`plaganini sinab kuradi.

Mashg`ulot muvaffaqiyatli o`tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg`otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har qil usullarni qo`lashi kerak.

Kichik guruh bolalarida mashg`ulotga qiziqish uyg`otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo`g`irchoq biznikiga mehmonga kelibda», - deb mashg`ulotni boshlash mumkin. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to`g`risidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg`ulot manna shunday boshlanadi.

Katta guruhlarda qanday mashg`ulot bo`lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib quydi. Bu bolalarning bo`lajak mashg`ulotga qiziqishini orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o`tadi va ularga rasimlarni ko`ribshni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko`rganini eslashni taklif etadi. Bolalar bu kunni zo`r qiziqish bilan kutishadi.

Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar mashg`ulotning zarurligi va majburiyligini tushinishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur.

Asosiy qism. Mashg`ulotda bolalarga Yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo`l-yo`riq ko`rsatiladi, qiynalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo`ladigan jamochilik munosa`tlarini alohida munosabat bilan qo`shib olib

boriladi. Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qoʻlaydi.

Mashgʻulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkileta bilishi kerak. Bu bolalar lodiga qoʻyilgan aqliy vazifaga bogʻliq. Bolalarga qanday ishlar olib borish zarurligi koʻrsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni eʼtibor bilan eshitib oʻtirishga oʻrgatish kerak. Zarurat tugʻilsagina takrorlash mumkun.

Bogʻchadagi bolalar oʻqish, yozishni bilmaganligi uchun oʻtilgan materialni qaytarib mustahkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan qochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi.

Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni toʻldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uygʻotadi va u narsa toʻgʻrisidagi tasavvur va tushunchalarini chuqirlashtiradi. Mashgʻulotni dastur maqsad va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qoʻllaniladi.

Bolalar oʻzlashtirib olishi va javob qilishi kerak boʻlgan material soʻz orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini soʻz bilan tushuntirib berish talab etiladi (masalan, son-sanoqqa oʻrgatishda, qurish-yasashda, rasm chizganda qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishini tushuntirib berishi talab etiladi).

Mutahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani oʻz ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega boʻladi.

Masalan, son-sanoq mashgʻulotida bolalar sanash materialini bilan oʻzlari mashqlarni mustaqil bajarishadi: tarbiyachining topshiriqiga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki koʻpaytirishadi. Buning uchun oʻyinchoqlardan ham foydalanish mumkun.

Mashgʻulot davomida pedagog hamma bolalar faol qatnashishini va ishni oʻz vaqtida puxta amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Agar mashgʻulot yakka

tartibda olib boriladigan bo'lsa (rasm, loy va plastilindan narsalar yasash, qurish-yasash, konstruksiyalash), bolalar ishni har xil vaqitda bajarganliklari uchun tarbiyachi mashg'ulot tugashga bir necha daqiqa qolganda mashg'ulotni tugatish kerakligi to'g'risida ularni ogohlantiradi.

Mashg'ulotni tugatayotib, tarbiyachi o'tkaziladi mashg'ulotga yakun yasaydi: bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda baholaydi, bolalarning mashg'ulotda qatnashganini gapiradi, ba'zan kegusi mashg'ulotda nimalar o'tishlarini aytadi.

Bolalarning o'qiv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimini to'g'ri baholashga bog'liq.

Qo'yilgan vazifaning bajarilishiga qarab baho berilishi kerak. Bolaning ishini to'g'ri baholab, «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» deyshi bola uchun oddiy maxtovdan ancha qimmatlidir.

Ish qanchalik yaxshi tahlil qilsa, u bolaning kelgusida ishini tuzatib olishiga yaxshiroq imkoniyat yaratadi.

Mashg'ulotlardan keyin tarbiyachi bolalarni o'yinga taklif etadi, boshqa mashg'ulot bo'lmasa, sayirga tayorlanishda.

Mashg'ulotda tarbiyachining bolalarga qo'yadigan talabi ularning yoshi va imkoniyatlarga mos bo'lishi kerak. Birinchi kichik guruh bolalarini enaga qarab turadi. Tarbiyachi mashg'ulot paytida hamma bolalarning faol qatnishishlariga haraka qiladi: savolga to'g'ri javob berishlarini ko'rsatilgan narsaning nomini aytishlarini, rasm chizishlarini, narsa yasashlari va hokazolarni kuzatadi.

Agar bolalar ikkinchi kichik guruhga yangi kelgan bo'lishsa, dastlabki 1-2 haftada tarbiyachi faqat xohlagan bolalar bilangina mashg'ulot o'tkazadi: bolalar yangi sharoitni yaxshi o'zlashtirib olganlaridan keyingina hamma bolalar bilan mashg'ulot o'tkaziladi.

Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarni guruh xonasi, qo'g'irchoq va o'yinchoqlar bilan tanishtiradi. Qo'g'irchoqar yordamida mashg'ulot o'tkazadi. Tarbiyachi avval bolalarda mashg'ulotka qiziqish uyg'otadi, keyin esa mashg'ulotning hamma uchun majburiy ekanligini sekin-asta bolalar ongiga singdirib boradi.

Sekin-asts mashg`ulot bolalar xulqiga moslab murakkablashtirib boriladi. Ular mashg`ulot paytida axloq qoidalarini egallab oladilar to`g`ri o`tirish, chalg`imaslik, tarbiyachi va o`rtoqlarini diqqat Bilan eshitish, tarbiyachi so`ragandagina jovob berganda o`rnidan turish, kerak bo`lsa stolning oldiga borish va qokazolarni o`rganadilar.

Katta bolalar o`zlarini tez tashkil eta bilishlari lozim: bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga osonlik bilan o`tishlari, mashg`ulot vaqtida ish joylarini ozoda saqlashlari, rasmga qarab so`zlaganda ko`rsatkichdan foydalanishlari, jovab berganda gavdalarini to`g`ri tutib turishlari, nutqlari tushunarli bo`lishi, etarli darajada baland ovozda gapirishlari, to`la javob berishlari, mashg`ulotdan keyin o`z ish joylarini yig`ishtirib qo`yishlari kerak.

Mashg`ulot paytida talabani bajarish axloq normasiga aylanib qolishi kerek. Bu ikki narsa asosida shakllanadi, birinchisi tarbiyachining obro`siga asoslanilsa, ikkinchisi ma`lum talabning rivojlanishi bilan (uqib olish va bajarish uchun eshitish kerek, qiziqarli bajarish zarur) amalga oshiriladi. Tashqaridan qaraganda bolalar xulqida hech qanday farq ko`rinmaydi – bu odatdagi intizomgi bo`ysunishning natijasi, ikkinchidan, bu o`quv faoliyati rivojlanganligining belgisi, ta`limning ta`siridir.

Mashg`ulotda axloq qoidalariga rioya qilish bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo`lib, maktab ta`limiga madaniy tayyorgarlikning hissiy-axloqiy qisim hisoblanadi.

Mashg`ulotning sifativa uning natijasi tarbiyachining unga qanday tayyorgarlik ko`rganiga bog`liq. Mashg`ulotga tayyorlanish mazmuniga quydagilar kiradi: mashg`ulotni rejalashtirish, kerakli jihozlarni tayyorlab qo`yish, bolalarni mashg`ulotga tayyorlash.

Tarbiyachi bir bo`limdan bitta emas, balki butun bir mashg`ulotlar sistemasini rejalashtirgandagina ma`lum natijaga erishishi mumkin. Masalan: «Kiyim qanday tikiladi?» mavzusini rejalashtirishda bir qancha mashg`ulotlarni belgilab chiqadi: kiyimni qanday tikish to`g`risida gapiradi va tikish uchun kerakli narsajlarni ko`rsatadi; yaqinroqdagi atel`ega ekuskursiyaga boriladi, gazlamalar to`g`risida

suhbat o'tkaziladi. Birinchi mashg'ulotda bolalarning tikish va kiyish to'g'risidagi bilimlari aniqlanadi; bolalar tikuv mashinasi va tikish uchun kerak bo'ladigan boshqa asboblardan bilan tanishishadi; tarbiyachi bolalarga ularni ko'rsatib, gapirib beradi, qisman tikish jarayonini ko'rsatadi.

Ikkinchi mashg'ulotda bolalar atel'dagi asbob-anjomlarni, tikuvchilarning ish jarayonini kuzatishadi, texnik moslamalar (elektr tikuv mashinalari, dazmollaydigan mexanik presslar, elektr qaychilar) bilan tanishishadi va qanday kiyimlar tikilishini bilib olishadi. Uchinchi mashg'ulotda bolalar har xil matodan tikilgan kiyimlar bilan tanishib, ularni bir-biridan farqlashga o'rgatiladi.

Shunday qilib, tarbiyachi har bir mashg'ulot mazmunini konkretlashtiradi, bajarish usullarini tanlaydi, bunday albatta bolalarning yoshi va imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

Ba'zi bir mashg'ulotlarga oldindan tayyorgarlik ko'riladi va urejada ham aks ettiriladi. Masalan, «Bizning bayram» degan mavzudagi rasm mashg'ulotlardan oldin bolalar bilan bayramona bezatilgan ko'chalarga sayr uyushtirish, rasmlarni ko'rish, oynai jahon orqali ko'rsatilgan bayram eshittirishlari bo'yicha suhbat o'tkazish mumkin. Tayyorgarlik ishlari bolalarning mashg'ulotga hissiyot tayyorgarligini ta'minlaydi. Tarbiyachi mashg'ulotning borishini balafsil o'ylab ko'radi. Unga ajratilgan vaqtdan samarali foydalanishga intiladi.

Masalan, yuqorida aytib o'tilgan «Kiyim qanday tikiladi?» mavzusiga oid birinchi mashg'ulotning borishi quyidagicha bo'lishi mumkin; pedagog bolalarga bir-birlarining kiyim-boshlarini ko'zdan kechirish va bu haqda gapirib berishni taklif etadi. Agar 3 - 4 boladan so'ralsa, bunga 3 - 4 daqiqa kerak bo'ladi. Keyin tarbiyachi: Kiyimlaringizni kim tikib bergan? Keyin tarbiyachi: «Kiyimlaringizni kim tikib bergan?», «Magazindan tayyor holda sotib olinadigan kiyimlar qayerda tikilishini kim biladi?», «Tikish uchun qanday buyumlar kerak?» degan savollarni beradi. Bu savollarga javob berish ham 3 – 4 daqiqa vaqtni oladi. Shundan keyin bolalarga gazlama, andaza, qayshi, santimert, igna, angishvona, tikuv mashinasini ko'zdan kechirish va har bir buyumning vazifasini so'zlab berish taklif etiladi. Bunga 8 – 10 daqiqa vaqt ketadi. Shu mashg'ulotning o'zida tarbiyachi

qo'yirchog' kiyimt tikishning ayrim jarayonlarini, andaza bo'yicha fartukni bichib olish, tikuv mashinasida cho'ntakni tikish, qo'lda tugmalarni qada shva tikishdagi ketma-ketlik haqida gapirib berishi kerak. Bo'nday mashqulotga 20 – 25 daqiqa davom etadi.

Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda tarbiyachi tegishli metodik adabiyotlardan foydalanadi.

Murakkab mashg'ulotlarga tayyorgarlanish konspekt tuzishni taqozo etadi. Unda mashg'ulotlarga mazmuni (ta'lim va tarbiyaviy vazifalar), tayyorlanishi kerak bo'lgan jihozlar, bolalar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar (agar bunga zarurat bo'lsa), mashg'ulotning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko'rsatiladi. Mashg'ulot jarayonini bayon etib yozishda mashg'ulotning boshi va oxirida (yakun chiqadirish va keyingi faoliya turiga o'tishadi) bolalarni uyushtirishni alohida ajra'tib ko'rsatish kerak.

Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun jihozlari o'z vaqtida tayyorlash zarur. Ularni tanlash mashg'ulotning mazmuniga va tarbiyachi belgilangan metodik usullarga bog'liq.

Odatda metodika kabineida «Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi» ning hamma bo'limlari bo'yicha metodik qo'llanmalar bo'ladi. etishmaganini tarbiyachi o'zi tayyorlaydi, ba'zan bu ishga katta va tayyorlov guruhleri bolalarni jalb etadi. Mashg'ulot uchun kerakli materiallarni bir kun ilgari tayyorlaydi, uning buzuk emasligini, didaktik materiallar hamma bolalar uchun etarli ekanligini tekshiradi.

Agar tarbiyachi ekskursiya o'tkazadigan bo'lsa, u oldindan ekskursiya o'tkaziladigan joyga borib kelishi, uchun ob'ekt tanlashi, bolalarni qanday joydloshtirishni o'ylab qo'yishga, eng yaqin va havfsiz marshrutni tanlash kerak. Mayda sanoq material, rasm mashg'uloti, applikatsiya, qurish-yasash uchun matnriallar, she'r, ertak matnlari oldindan tayyorlab qo'yiladi. Masalan, kichik guruh bolalarga ekish yoki ko'chat o'tqazishga qiziqsh uyg'otish uchun ko'karib turgan o'simlikni ko'rsatish kerak. Buning uchun avval etishtirish zarur.

Navbatchilar mashg'ulotga kerakli jihozlarni tayyorlaydilar, stol, stullarni qulay g'ilib joylashtiradilar, qo'llania va materiallarni qo'yib chiqadilar. Jismoniy tarbiya

va musiqa mashg'ulotlaridan oldin bolalar poyabzalni almashtiradilar, sport formasini kiyadilar.

Mashg'ulotlarda tarbiyachining etakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi. Tarbiyachi bolalar bog'chasida asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilim-pedagogik tayyorgariga, jayaobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq.

Bolaning o'qiv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiyachining o'ziga xos xususiyatlarini - uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi-bolaning ruhiyatini, yoshva o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

Bolalar bog'chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgan bilan har bir boladagim alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda qanday na moyon bo'lishini oldindan ko'ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.

Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, ahloqiy, mehnat, estetik tomonidan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bo'lsa) yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi.

Tarbiyachi har bir bolaning kelajalda haqiqiy inson bo'lishiga erdam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya eshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki bu davrdagi har taassurot bolaning xotrasida bir umirga saqlanib qoladi.

Bolani tushuna bilish va uning ma'naviy dunesiga Kira olish tarbiyachidan zo'r kasb tayerligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo'lish – fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy meg'natini tasavvur etib bo'lmaydi.

Mashg'ulotda tarbiyachi o'z ovozi bilan qural sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta'sir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat'iy gapirish mumkin, ammo bunda so'z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta'sir etishi lozim.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy rivojlanishiga aholida e'tibor berishi lozim.

Bolaning ko'p vaqt harakatsiz o'tirishi uning sog'lig'i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi.

Bolaning ko'p harakatlarni o'tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto'g'ri o'sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish muvofiqdir.

Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, qunov muhitni tashkil etish lozim. Bolani: «Tezroq yuvininglar-nonushtaga kech qolaymiz», «O'yinchoqni tezroq yig'ishtiringlar, sayrga yoki mashg'ulotga kech qolaymiz» va hokazo deb shoshiltirish kerak emas.

Ta'lim berganda uni shunday tashkil etishi kerakki, har bir faol ishlasin va har biri ijobiy natijaga erishsin.

Bolalarning mashg'ulotda olgan bilim va malakalari boshqa faoliyat turlarida qo'llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo'llay olishlari ularning yaxshi o'zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya'ni ular hesh qanday kiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta'limning amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir.

Agar bolalar etarlicha bilim va malakalarga ega bo'lsa, ular bilan xilma-xil mashg'ulotlar o'tkazish mumkin, bu mashg'ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydalanishlari: bemalol rasm chizishlari, biror narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg'ulotlar odatdagi mashg'ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o'zi belgilash, qurilishni o'zi o'ylab topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg'ulotlar

dastuning ayrim bo`limlari bo`yicha tal`limning yakunlovchi bosqichlarida o`tkaziladi.

Ekskursiya bolalarga ta`lim berishning maxsus shaklidir. Mashg`ulotdagi kabi ekskursiyada ham dastur mazmuni bilan bog`liq ta`lim-tarbiya vazifalari qo`yiladi va hal etiladi. Mashg`ulotda bo`lgani kabi ekursiyada ham hamma bolalar qatnashadi. Ammo bolalar faoliyatining mazmuni, tashkil etilish shakli va ta`lim berish sistemasiga ko`ra, ekskursiya bolalar bog`chasida ta`limni tashkil etishning maxsus yalpi shaklidir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ekskursiyadan keng foydalaniladi. Bunday ekskursiyalar yilning har xil fasllarila dalaga, o`rmonga, shahar bog`lariga, o`tloqqa, suv manbalariga uyushtirilishi mumkin. Bolalarni kattalarning turli xil mehnati, mehnat naijalari,, har xil ijtimoiy voqea va hodisalar bilan tanishtirish uchun ham ekskursiyalar o`tkaziladi

Ekskursiyadan ko`zlangan asosiy maqsad-bolalarning tevarak-atrofdagi hayot to`g`risidagi tasavvur va taassurotlarini shakllantirishdir.

Shunga ko`ra ekskursiyada asosan kuzatish metodidan foydalaniladi. Ekskursiya jarayonida tarbiyachi kuzatilayotgan ob`ekt to`g`risida bolalarga so`zlab beradi, tushintiradi.

Ekskursiya vaqtida ba`zan rejalashtirilmagan voqea, g`odisalarni kuzatishga to`g`ri kelib qoladi. Shuning uchun tarbiyachi ekskursiyaga oldindan puxta tayyorgarlik ko`rishi lozim (bolalarning diqqatini kerakli ob`ektga qarata olishi, uyushqoqlik, intizomlilikni saqlashga o`rgatishi kerak). Ekskursiya uchun mashg`ulotga nisbatan kengroq mazmunni o`z ichiga oladigan ta`limiy vazifa belgilanadi. Ekskursiyaning joyi, tuzilishi, metodi, undan ko`zlangan ta`lim vazifasi mazmunga qarab belgilanadi. Ekskursiyaga tayyorlanishda uning yaqin-uzoqligi, ekskursiyada bolalar yig`adigan narsalar, uning uchun kerakli asboblar, ularni qanday joylashtirib olib borish oldindan puxta o`ylab rejalashtirib chiqiladi.

Bolalarda ekskursiyaga qiziqish uyg`otish uchun ularga qaerga ekskursiyaga borishlari, undan ko`zlangan maqsad to`g`risida tarbiyachi qisqacha so`zlab beradi.

Ekskursiyaga tarbiyachi bolalar bilan birgalikda tayyorg`arlik ko`radi, olib boriladigan jihozlar bolalar bilan birgalikda tanlanadi, joylashtiriladi va kimlar nimani olib borishi belgilanadi, tarbiyachi bolalarga ekskursiyada o`zlarini qanday tutishlari kerakligini eslatadi. Bunday ekskursiyalarni mazmunli tashkil etish va uyushqoqlik bilan o`tkazishda tarbiyachining rahbarlik roli muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Mashg'ulot bolalar bog'chasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy-gigienik, xulq madaniyati, gaplashishi nutiqi, sanoq - hisob harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar bolalar bog'chasida ta'limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lim o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarni esa aniqlab, mustahkamlaydi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashki etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot yaxshi tashkil etadigan bo'lib qoladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lim berish natijasida bilimga qiziqishlari rivojlana boardi.

Bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topag'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiy zo'r berishni talab etivchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamochilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish-yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o'yinlarini ijro itish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yara'tishga yordam beradi, birga ishlash, yashashga o'rgatadi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'xishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'qri sifatlar hosil qilinadi.

Mashg`ulotlar o`qitishning quydagi bo`limlari bo`yicha olib boriladi atrof-muxit bilan tanishtirish va bolalar nutqini o`stirish elektor matematik tasavvurlarni rivojlantirish, tasviriy faoliyat va qurish- yasash, jismoniy tarbiya musiqaviy tarbiya.

Mashg`ulot dasturi quydagilarni ko`zda tutuadi:

obektlarning xususiyatlari va sifalari, ularning o`zgarishlari, aloqalari xarakat usullari va xokazolar xaqidagi bilimlarning muayyan xajmini, ularni dastlab o`zlashtirish, kengaytirish mustahkamlash umumlashtirish va sistemalashni.

Faoliyatning mahsuldor turlarida qo`llaniladigan amaliy ko`nikma va malakalar xajmi. O`quv -bilish faoliyatining ko`nikma va malakalari xajmini, ularning dastlab shakllanish yoki takomillashuvini, qo`llarga oid mashqlarni. Psixik va bilish jarayoni sifatlarini rivojlantirish vazifalarini.

Muayyan mashg`ulotda beriladigan bilimlarga, voqea va xodisalarga bolalar munosabatini shakllantirish o`z faoliyatiga munosabatini tarbiyalash tengqurlari o`rtasida o`zaro munosabatlarni o`rnatish, shuningdek, o`qitish mashg`ulotlari sharoitida yurish-turish qoidalari va normallarini o`zlashtirishni.

Shunday qilib, mashg`ulotlar mazmuni xam ta'limiy ham tarbiyaviy vazifalarni ular birligida va o`zaro xarakatda xal etishga yo`naltirilgandir.

Xar bir mashg`ulotdagi o`quv mazmunining xajmi uncha katta bo`lmaydi. U turli yosh guruhlardagi bolalarning xotira va qobiliyatlarini xisobga olgan xolda belgilanadi.

Masalan kuzatish chog`ida yangi obektlar bilan tanishtirishda kichik tarbiya yoshi guruxdagi bolalar 2-3 yorqin belgini eslab qolish , o`rta tarbiya yoshi guruxiga mansub bolalar 3-4tagacha katta tarbiya yoshi guruxdagilar esa 5-6 tagacha belgini eslab qolishga qodirdirlar.

Bolalar bog`chalaridagi mashg`ulotlarning tuzulishida bilimlar, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishni tekshirish o`tkazilmaydi. Bu ish bolalarning mashg`ulotlaridagi faoliyatni kuzatish jarayonida bolalar faoliyati natijalarini tahlil qilishda shuningdek kundalik hayotda va bolala yutuqlarini turli ilmiy metodikalar yordamida o`rganish chog`ida amalga oshiriladi.

Mashg`ulotlar barcha bolalar bilanyalpisiga olib boriladi. Bu uni tashkil etilishi va bolalar faoliyatiga rahbarlik qilishga aloxida e'tiborni talab qiladi. Avvalo bolalarning umumiy yuqori ish qobiliyatini ta'minlaydigan gigienik sharoitlar yaratilishi lozim. Mashg`ulolar toza, yaxshi shamolantirilgan, bolalar bo'yiga mos mebellar bilan jihozlangan honada o'tkazilishi lozim.

Mashg`ulotlar katta kishilar tomonidan tashkil etiladi va o'tkaziladi. Ular mashg`ulotlarning mazmuni va vazifasini belgilaydilar, metodlar va usullarni tanlaydilar bolalarning bilish faoliyatini bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishga yo`naltiradilar hamda tashkil etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir»- Toshkent 1995 y.
2. I.A.Karimov «Vatan ozodligi - Oliy saodat» - Toshkent
3. I.A.Karimov «Barkamol avlod orzusi» - Toshkent 1999 y.
4. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent 1992 y.
5. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risidagi qonun»i - Toshkent 1997 y.
6. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya. Toshkent 1992 y.
7. Maktabgacha ta'lim jurnali. №1 -2000 y.
8. Kadrlar tayyorlash bo`yicha «Milliy dastur» - Toshkent 1997 y.
9. Maktabgacha tarbiya muassasasi to`g`risidagi nizom. - Toshkent 1995 y.
10. «Bolalar bog`chasida ta'lim dasturi» - Toshkent 1993 y.
11. «Bolalar bog`chasining katta tarbiyachisi» - Toshkent 1991 y.
12. «Organizatsiya i rukovodstvo doshkolno`m vospitaniem» M-1992 g.
13. «Inspektirovanie detskogo sada» M-1995 g.
14. «Rukovodstvo detskim sadom» M-1992 g.
15. V.G.Nichaeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatda tarbiyalash - Toshkent. O`qituvchi -1995 y.
16. L.P.Tarasova «Bolalar bog`chasi» mudiralar kitobi- Toshkent 1988 y.
17. M.F.Fomicheva., Q.S.Shodieva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatish. Toshkent.O`qituvchi -1984 y.
18. N.M.Aksarina . «Go`dak bolalar tarbiyasi» - Toshkent «Meditsina» -1983 y.
19. G.A. Kalyujin., M.P.Deryugina. «Yo`rgakdan maktabgacha» -Toshkent «O`qituvchi» - 1988 y
20. T.Usmonxo`jaeva., F.Xo`jaev. Ming bir o`yin -Toshkent Ibn Sino nashriyoti- 1990
21. O`.Otavaliyeva. Bola tarbiyasida bog`cha va oila hamkorligi. O`qituvchi 1994 y.
22. V.G.Negacheva, T.A.Markova. Bolalar bog`chasida ahloqiy tarbiya. O`qituvchi - 1990
23. V.G. Lomkova., P.G.Samorunova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O`qituvchi -1991-1992 yy.